


YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 78 (1677), 2026-yil 21-aprel, seshanba



SAVDO-IQTISODIY SOHADA ISTIQBOLLI LOYIHALAR QO‘LLAB-QUVVATLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu kunlarda Toshkent shahrida o‘tayotgan “INNOPROM. Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasida Rossiya delegatsiyasiga boshchilik qilayotgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o‘rinbosari Denis Manturovni qabul qildi.



Uchrashuvda Tatariston, Boshqirdiston Respublikalari, Leningrad, Kirov, Irkutsk va Omsk viloyatlari, shuningdek, Rossiyaning bir qator yetakchi kompaniyalari rahbarlari ham ishtirok etdi.

Subhat avvalida yuqori martabali mehmon mamlakatimiz yetakchisiga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston Prezidenti 35 mamlakatdan 10 mingdan ziyod biznes vakillari ishtirokida oltinchi “INNOPROM” ko‘rgazmasi muvaffaqiyatli tashkil etilgani va o‘tkazilayotganini olqishladi.

Oliy darajada, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo hajmi barqaror o‘sb borayotgani, sanoat, tinch atom, energetika, transport, metallurgiya, kimyo va boshqa tarmoqlardagi loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani mamnuvniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash sur‘atini saqlab qolish va ustuvor tarmoqlarda, shu jumladan, sanoat zonalarida doirasida kooperatsiya loyihalarini jadallashtirish bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish, hududlar va tadbirkorlar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirish muhimligi ta‘kidlandi.

Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, energiya samaradorligi, suv xo‘jaligi, kibernetika va sun‘iy intellekt kabi istiqbolli yo‘nalishlardagi rejalar qo‘llab-quvvatlandi.

Texnika yo‘nalishidagi qo‘shma oliygo‘hlar negizida iqtisodiyotning muhim tarmoqlari uchun muhandis kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Shuningdek, uchrashuvda Rossiya hududlari va kompaniyalari rahbarlari mamlakatimiz yetakchisiga turli tarmoqlarda yangi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha aniq rejalarini taqdimot qildi.

O‘ZA

“YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI — 2030” STRATEGIYASI SAMARALI AMALGA OSHIRILISHI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-aprel kuni “Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030” strategiyasi loyihasi yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bu mamlakatimizda yoshlarga oid qabul qilinayotgan birinchi yaxlit strategiya bo‘lib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda yoshlarning o‘rni va salohiyatini yanada to‘liq ro‘yobga chiqarishga qaratilgan.

Bugungi kunda yurtimiz aholisi 38 million nafarni tashkil etayotgan bo‘lsa, shundan 9,5 millioni yoki qariyb 25 foizi 14-30 yoshdagi yigit-qizlardir. Har yili 270 mingta yosh oila shakllanmoqda. Ana shu demografik omil yoshlar siyosatiga uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab etmoqda.

Strategiyada yoshlar bandligini ta‘minlash va tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, sifatli va inklyuziv ta‘limni

rivojlantirish, xorijiy tillarni ommalashtirish va kasbiy ta‘limni kengaytirish, mehnat bozorini rag‘batlantirish hamda yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, madaniy, jismoniy va ma‘rifiy rivojlanishni kuchaytirish, volontyorlik harakatini keng yoyish, yoshlar salomatligini mustahkamlash, shuningdek, ochiqlik va ishtirok mexanizmlarini kengaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan.

Taqdimotda 2030-yilga qadar erishiishi lozim bo‘lgan asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar ko‘rib chiqildi. Xususan, har yili 600 ming nafar yoshning bandligini ta‘minlash, 2030-yilga qadar 900 ming yoshni

volontyorlikka jalb etish, o‘quv markazlari sonini 90 mingtaga yetkazish, 450 ming nafar yoshning xorijiy tillar bo‘yicha bilimni B2 darajasiga olib chiqish, yoshlar jinoyatchiligini kamaytirish, har yili kamida 10 mingta yosh oilani ipoteka orqali qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar nazarda tutilgan. Ta‘lim sohasida yoshlarning sifatli bilim olishi, nodavlat ta‘lim xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash, chekka hududlarda o‘quv markazlari imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy tillarni o‘rganishni rag‘batlantirish bo‘yicha yangi imtiyozlar nazarda tutilgan.

▶ Davomi 2-beta

TASHQI MEHNAT MIGRATSIIYASI BOZORI GEOGRAFIYASI KENGAJTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashqi mehnat migratsiyasini tartibli tashkil etish, fuqarolarni xorijdagi yuqori daromadli ish o‘rinlariga tayyorlash va ularni har tomonlama himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda 40 ga yaqin xorijiy davlatda 1,2 million nafar fuqarolarimiz mehnat qilmoqda. Yevropa va Sharqiy Osiyoning rivojlangan davlatlarida malakali ishchi kuchiga ehtiyoj yildan yilga ortib bormoqda. Qolaversa, Yevropa komissiyasining 2030-yilgacha bo‘lgan yangi migratsiya strategiyasida Markaziy Osiyo bilan migratsiya dasturlari, kadrlar tayyorlash va noqonuniy migratsiyaning oldini olishga alohida urg‘u berilgan.

Shu bois, tashqi mehnat migratsiyasi bozori geografiasini kengaytirish, ayniqsa, yuqori daromadli mehnat bozorlariga chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bugungi kunda xorijdan til va kasb talablariga javob beradigan 100 mingdan ortiq malakali mutaxassisga buyurtmalar kelib tushgan. Jumladan, Germaniyaga 40 ming hamshira, Yaponiyaga 15 ming qurilish, logistika va servis sohalari mutaxassislari zarur.

Mazkur ehtiyojni qoplashda Germaniya, Koreya va Yaponiya kompaniyalari bilan texnikumlar negizida tashkil etilgan qo‘shma ta‘lim loyihalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy kompaniyalar bilan tashkil etilgan 12 ta “Kasb plyus til” tamoyili asosida qo‘shma ta‘lim loyihalarida 8,5 ming fuqaro o‘qimoqda. Ularning 3 ming bitiruvchisi allaqachon ishga joylashdi.

▶ Davomi 2-beta

“JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH MAQSADIDA TRANSMILLIY NARKOTAHIDIDLARGA QARSHI KURASHISH” MAVZUSIDAGI XALQARO FORUM ISHTIROKCHILARIGA

Assalому аlayкum, hurmatli forum ishtirokchilari!

Muhtaram mehmonlar!
Xonimlar va janoblar!

Sizlarni Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida transmilliy narkotahididlariga qarshi kurashish forumida samimiy qutlashdan mamnunman.

Ko‘hna va navqiron Samarqand shahriga xush kelibsiz!

Fursatdan foydalanib, bugungi anjumanda ishtirok etayotgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi ijrochi direktori o‘rinbosari Bo Matiasen janoblariga, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti Bosh direktori Tedros Adxanom Gebreyesus janoblariga, Xalqaro narkotiklarni nazorat qilish qo‘mitasi Bosh kotibi Stefano Berterame janoblariga, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlariga, xorijiy hukumatlar a‘zolariga, xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, shuningdek, barcha mehmonlarimizga o‘zinning minnatdorligimni bildiraman.

Qadrli tadbir ishtirokchilari!
Bugungi tahlikali zamonda dunyo hamjamiyatining yanada qat‘iyat bilan birgalikda harakat qilishi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda.

Kun sayin uyushgan jinoyatchilik, g‘iyohvand moddalarni ishlab chiqarish va tarqatishning yangi shakllari paydo bo‘layotgani insoniyat uchun transmilliy tahdidlar ko‘lamini kengaytirmoqda.

Bu jarayonlar nafaqat mamlakatlar xavfsizligiga, balki eng qimmatli bo‘lgan inson hayoti va salomatligi, odamlarning kelajagiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Bugun narkotiklar savdosi transchegaraviy va virtual xarakterga ega bo‘lib borayotgani xavf-xatarlarni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, jinoiy guruhlarining shifrlangan aloqa kanallari, kontaktisiz muloqot va murakkab moliyaviy vositalardan foydalanayotgani narkotiklarga qarshi kurashishda bizdan zamonaviy yechim va yondashuvlarni talab qilmoqda.

Bugun aholi, ayniqsa, yoshlar orasida yangi sintetik narkotiklar, psixotrop va kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar keng tarqalayotgani ham barchamizni chuqur tashvishga solishi tabiiy.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, dunyoda 300 milliondan ortiq odam g‘iyohvand moddalar ta‘siriga tushib qolgan. Har yili 600 mingga yaqin inson ushbu illarning qurboniga aylanoqda.

Bugungi globalashuv sharoitida bunday xavf-xatar barcha davlatlar qatorida O‘zbekistonni ham cheklangan o‘tayotgani yo‘q.

Shu bois, O‘zbekistonda g‘iyohvandlik va narkoinoyatlariga qarshi kurashish masalasi umumimilliy harakatga aylantirib, barcha kuch va vositalarni safarbar qilyapmiz.

So‘nggi yillarda sohada idoralararo hamkorlikni mustahkamlash, profilaktika mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan 20 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo‘yicha milliy strategiya qabul qilindi.

Boradagi eng katta qadam bo‘ldi.

Bu xavflarga qarshi kurashish, narkoinoyatlarining oldini olish bo‘yicha quyidagi tashabbuslarni ilgari suramiz.

Birinchidan, transmilliy narkoinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor axborot almashinuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bois, barcha ishtirokchi davlatlar huquq-tartib idoralari ma‘lumotlar bazasini birlashtiradigan, sun‘iy intellekt yordamida ishlaydigan yagona raqamli platformani ishga tushirishni taklif etamiz.

Bu platforma narkotiklar yo‘nalishlarini barvaqt aniqlash, xavfli yuklar harakatini erta bosqichda fosh etish, transmilliy jinoiy guruhlar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib borishga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, narkobiznes bo‘lajak g‘iyohvand moddalar aylanmasi emas, bu — milliardlab dollarlik yashirin iqtisodiyot, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmni moliylashtiradigan manba hamdir.

sodir etilayotgani, asosiy xavf guruhini 15 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qilayotgani bu illatning aholi genofondiga naqadar katta tahdid ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Xalqimizda “Bir bola yo‘ldan chiqsa — jamiyat izzidan chiqadi”, degan hikmatli gap bor. Shu ma‘noda, bir farzandning g‘iyohvandlik tuzog‘iga tushib qolishi, bu nafaqat uning oilasi, yaqinlari, balki butun bir mahalla uchun fojia.

Shuning uchun O‘zbekistonda buning oqibatlarini bilan kurashishga qolmay, yoshlarimizning g‘iyohvandlik changaliga tushib qolishining oldini olish bo‘yicha katta targ‘ibot kampaniyasini boshlaganmiz.

Bu ishlarda faxriylarimiz, nuroniy otaxon va onaxonlarimiz, mahallada obro‘-e‘tibor qozongan faollar, jamoatchilik vakillari boshqosh bo‘layotgani o‘zining natijasini bermoqda.

Biz buni izchil davom ettirib, oila, mahalla, maktab, texnikum, oliygo‘hlarimiz o‘rni va rolini yanada kuchaytirish bo‘yicha alohida dasturlarni amalga oshiryapmiz.

Asosiy niyatimiz — yoshlarimizni bunday xatarlardan asrash, ularni bilim, bilim va ezgu maqsad sari yo‘naltirishdir.

Yaqinda tashkil etilgan “Anti-Narko” volontyorlik harakati qisqa vaqt ichida 17 mingdan ortiq yoshlarni birlashtirdi. Barcha hududlarda sun‘iy intellekt yordamida narkotiklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan “AI Hackathon” milliy loyihagini boshladik.

Hech shubhasiz, bu ishlarimiz yoshlarda g‘iyohvand moddalar iste‘moliga qarshi mustahkam immunitet, narkoinoyatlarga nisbatan murosasiz muhit yaratishga xizmat qiladi.

O‘tgan yili mamlakatimiz Osiyo davlatlari orasida birinchilar qatorida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasining CHAMPS tashabbusiga qo‘shildi. Ushbu dastur voyaga yetmaganlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish va narkotiklarga qarshi yanada samarali kurashishga katta yordam bermoqda.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!
G‘iyohvandlikka qarshi kurash — bu faqat bir davlatning emas, balki butun insoniyatning umumiy mas‘uliyati va majburiyatidir.

O‘zbekiston narkotiklarga qarshi kurashish borasida 50 dan ortiq davlat va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda.

Biz bu aloqalarni mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta‘minlash hamda xalqlar o‘rtasidagi ishonchni yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim ko‘pri deb bilamiz.

Hozirgi kunda narkotiklar savdosi zamonaviy texnologiyalar, noqonuniy moliyaviy oqimlar, transmilliy uyushgan jinoyatchilik tarmoqlari bilan chuqur bog‘lanib ketganini yana bir bor ta‘kidlamoqchiman.

Bu xavflarga qarshi kurashish, narkoinoyatlarining oldini olish bo‘yicha quyidagi tashabbuslarni ilgari suramiz.

Birinchidan, transmilliy narkoinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor axborot almashinuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bois, barcha ishtirokchi davlatlar huquq-tartib idoralari ma‘lumotlar bazasini birlashtiradigan, sun‘iy intellekt yordamida ishlaydigan yagona raqamli platformani ishga tushirishni taklif etamiz.

Bu platforma narkotiklar yo‘nalishlarini barvaqt aniqlash, xavfli yuklar harakatini erta bosqichda fosh etish, transmilliy jinoiy guruhlar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib borishga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, narkobiznes bo‘lajak g‘iyohvand moddalar aylanmasi emas, bu — milliardlab dollarlik yashirin iqtisodiyot, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmni moliylashtiradigan manba hamdir.

Jinoiy mablag‘larni yuvishning eng katta qismi bugun aynan raqamli aktivlar va offshor hududlar orqali amalga oshirilmoqda.

Narkobiznesni qurol bilan emas, pulsiz qoldirish orqali yengish mumkin. Agar biz uning “moliyaviy arteriya”larini bo‘g‘ib qo‘ysak, bu illat o‘z-o‘zidan yo‘qoladi.

Shuning uchun kripto-birjalar uchun majburiy identifikatsiya standartlarini global darajada birlashtirish, offshor yurisdiksiyalari bilan ma‘lumot almashinuvi bo‘yicha majburiy kelishuvlar, “noma‘lum manba” mablag‘larini avtomatik bloklash mexanizmlarini joriy etish zarur.

Shuningdek, noqonuniy mablag‘lar harakatini dunyo bo‘ylab avtomatik aniqlaydigan, uni qabul qilgan bank yoki moliyaviy tashkilotni darhol xavf toifasiga kiritadigan “xalqaro raqamli qora kod” tizimini joriy qilishni taklif etaman.

Uchinchidan, ko‘rib turibsizlar, kundankunga sintetik narkotiklarning yangi-yangi turlari paydo bo‘lmoqda.

Shu bois, doimiy muloqot maydonini ishga tushirib, sintetik narkotiklarga ruju qo‘ygan bemorlarni samarali davolash bo‘yicha zamonaviy metodika va standartlarni birgalikda yaratib borishni taklif qilamiz.

To‘rtinchidan, g‘iyohvandlikka chalinganlarning tibbiy reabilitatsiyasi bo‘yicha tajriba almashish maqsadida Markaziy Osiyo Narkologlar assotsiatsiyasini tashkil qilsak, o‘ylaymanki, qo‘llab-quvvatlaymiz.

Ushbu tashkilotning Bosh ofisini Samarqand shahrida joylashtirishga tayyormiz.

Beshinchidan, bugun ayrim hududlarda narkotik yetishtirish va tarqatish iqtisodiy imkoniyatlar cheklangani, ish o‘rinlari yetishmasligi va ijtimoiy tengsizlik oqibatida saqlanib qolmoqda.

Shu bois, narkotrafik xavfi yuqori bo‘lgan hududlar uchun “maxsus rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Bunda g‘iyohvand moddalar yetishtirishga moyil hududlardagi rasmiy iqtisodiyotga faol investitsiyalar kiritish orqali aholi uchun barqaror daromad manbalarini yaratish, infratuzilmani yaxshilash, ta‘lim va tibbiyotni rivojlantirish orqali aholining jinoiy iqtisodiyotga qaramligini kamaytirish bo‘yicha kompleks choralar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Bunday dastur faqat grant yoki yordam emas, balki xalqaro hamjamiyatning umumiy mas‘uliyati sifatida ko‘rilishi kerak.

Hurmatli do‘stlar!
Bugungi tadbirimizda hamkor davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlardan 500 nafarga yaqin ishtirokchi qatnashmoqda.

Mazkur anjumanda ilgari suriladigan taklif va tashabbuslar insoniyatga, millatlar genofondiga tahdid solayotgan narkotiklar muammosiga qarshi birlashtirish yo‘lida yangi qadam bo‘ladi.

Bu borada O‘zbekistonning pozitsiyasi qat‘iy: biz ushbu tahdidlarga qarshi kurashishda hech qachon ikkilanmaymiz, chekinmaymiz, ortga qaytmaymiz!

Biz barcha sheriklarimizni ushbu global tahdidga qarshi amaliy harakatga chaqiramiz!
Ishonchim komil, forumda qabul qilinadigan Samarqand deklaratsiyasi xalqimiz xavfsizligi, salomatligi va farovonligini mustahkamlashga xizmat qiladi hamda ushbu muhim yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytiradi.

Barchangizga mustahkam sog‘liq, mas‘uliyatli faoliyatning yangi yutuq va omadlar, forum ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QOZOG‘ISTONDAGI XALQARO TADBIRLARDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig‘ilishida ishtirok etish uchun 21-22-aprel kunlari amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo‘ladi.

Bo‘lajak tadbirlar davomida Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyoti yo‘lida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning dolzarb ekologik, iqlim va

suv muammolarini hal etish masalalari muhokama qilindi.

Prezidentimiz ushbu masalalar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashadi, milliy pavilyonlardan

iborat maxsus ekologik ko‘rgazmaga tashrif buyuradi.

Sammitlar yakunida qator muhim hujjatlar qabul qilinishi kutilmoqda.

O‘ZA



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

“YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI – 2030” STRATEGIYASI SAMARALI AMALGA OSHIRILISHI BELGILANDI

Boshlanishi 1-betda

Jumladan, o'lis va chekka hududlarda o'quv markazlarini tashkil etishga 300 million so'mgacha ssuda ajratish, ular uchun ijtimoiy soliqni va o'qituvchilarining daromad solig'ini 1 foiz etib belgilash taklif etildi. Shuningdek, B2 darajaga erishgan yoshlar uchun xorijiy pasport rasmiylashtirish uchun bojni, C1 daraja va tadbirkorlik tashabbuslari uchun ayrim davlat xizmatlari to'lovlarini 50 foizgacha kamaytirish taklif qilinmoqda.

Strategiyada yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ipoteka dasturi orqali kreditning Markaziy bank stavkasi yuqori qismi qoplab berilishi, shu tariqa uy-joy masalasida yosh oilalarga qo'shimcha yengillik yaratilishi belgilanmoqda.

Ijtimoiy faollikni oshirish maqsadida volontyorlik jamg'armasidan 100 million so'mgacha grantlar ajratish, faol yoshlarni davlat tashkilotlarida pullik amaliyotga jalb qilish, ilg'or ijodkorlar uchun Prezident mukofotini joriy etish, shuningdek, kitob va Book-kafelar joylashgan “Yoshlar ko'chalari”ni tashkil qilish rejalashtirilgan. Yoshlar infratuzilmasining minimal standartlari belgilanadi, har bir hududdan “yoshlar tuman-shaharlari” tanlab olinib, ushbu standartlarni joriy etish bo'yicha namuna yaratiladi.

Yoshlar salomatligini mustahkamlash, ruhiy xavf omillarini qisqartirish, psixologik ko'mak tizimini kuchaytirish masalalari ham strategiyada o'z aksini topgan. Xususan, ruhiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar ulushini 40 foizga kamaytirish, tunu kun ishlaydigan psixologik aloqa markazini tashkil etish, sport bilan shug'ullanuvchi yoshlar ulushini 25 foizga oshirish nazarda tutilmoqda.

Yoshlar siyosatida ochiq mulohat va obyektiv tahlil tizimini kuchaytirish maqsadida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan yoshlarning ehtiyojlari va kutilmalari yuzasidan ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib, Milliy yoshlar indeksi tuziladi. Yig'it-qizlarning murojaatlari bilan

ishlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Har payshanba yoshlar bilan mulohatlar o'tkazib boriladi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ham strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Shu maqsadda xalqaro forumlar, global tashabbuslar, avlodlar mulqoti, Xalqaro yoshlar kongressi kabi formatlar yo'lga qo'yilishi, 12-avgust — Xalqaro yoshlar kuni doirasida yirik tadbirlar o'tkazilishi, 100 ming nafar o'zbekistonlik yoshlarning xalqaro dasturlarda ishtirokini ta'minlash rejalashtirilgan. Shuningdek, BMT, Jahon banki, YTTB kabi tuzilmalar bilan “Junior Professional Officer” dasturi doirasida xalqaro tashkilotlarda amaliyotni tashkil etish ko'zda tutilgan.

Strategiyani 2026-2027-yillarda amalga oshirish doirasida 7 ta yo'nalish bo'yicha 56 ta loyiha amalga oshiriladi. Jumladan, “Yangi avlod tadbirkorlari” dasturida Garvard, Stenford, MIT, London biznes maktabi kabi nufuzli ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 20 ming yoshni o'qitish, 1 mingta biznes loyihasini saralab olish va ularga 3 yilgacha muddatga bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravarigacha ssuda berish rejalashtirilgan. Yosh tadbirkorlarga muhandislik tarmoqlariga ulanish xarajatlarini qisman qoplash tartibi ham joriy etiladi.

Respublika bo'yicha “O'zbekiston yoshlarni sevadi!” loyihasi, “Hayot fest” yoshlar festivali, “Talaba Fest” va “Talaba Expo 2026” kabi tadbirlar o'tkaziladi, Robototexnika assotsiatsiyasining faoliyati qo'llab-quvvatlanadi.

Davlatimiz rahbari yoshlar masalasiga doir barcha tashabbus va choralar, eng avvalo, yosh avlodning bilimli, sog'lom, tashabbuskor va vatandor bo'lib kamol topishiga, ularning hayotda munosib o'rin egallashiga xizmat qilishi zarurligini ta'kidlaydi. Strategiyani samarali amalga oshirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA

TASHQI MEHNAT MIGRATSIIYASI BOZORI GEOGRAFIYASI KENGAYTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Endilikda bunday loyihalar sonini 20 taga yetkazish, talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb va xorijiy tillarga o'qitish ko'lamini 50 foizga kengaytirib, qamrovni 10 ming nafardan oshirish rejalashtirilgan. Jumladan, Toshkent shahrida 12 ta talab yuqori kasb, 7 ta chet tiliga o'qitish, 6 ta sertifikat imtihonini o'tkazish uchun sharoitlar hamda 600 o'rinni o'quv kampusini o'z ichiga olgan maqsadli tayyorlash markazini tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, Andijon, Samarqand, Farg'ona va Toshkent shahridagi tibbiyot texnikumlarida hamshiralarni til va kasbiy ko'nikmalar bo'yicha xalqaro imtihonlarga tayyorlaydigan maxsus o'quv kurslari tashkil etiladi. Shu bilan birga, qurilish sohasida betonchi, qolipchi, armatura to'quvchi va payvandlovchilarni tayyorlash hamda malakasini baholash markazlarini kengaytirish choralari ko'riladi.

Hududlarda infratuzilmani yaxshilash maqsadida joylarda yagona migratsiya markazlari va haydovchilikka o'qitish xabarlari tashkil etish taklif etildi.

Mavsumiy ish yo'nalishlarini ham kengaytirish zarurligi qayd etilib, bu borada agrar va turizm sohasida imzolangan 12 ta yangi xalqaro bitim asosida AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Turkiya va Koreya kabi davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish topshirildi.

Taqdimotda migratsiyani tartibli tashkil etishning yangi moliyaviy mexanizmlari ham muhokama qilindi. Xususan, chet tilini o'rganish xarajatlarining 50 foizini, kasbiy malaka imtihoni xarajatlarini esa to'liq qoplab berish tartibini joriy etish, bunda mablag'larni o'quv markazlariga emas, fuqarolarning o'ziga berish taklif qilindi. Shuningdek, chet elda ishga joylashgan har bir ishchi uchun xorijiy

ish beruvchi va rekrutning kompaniyalarni rag'batlantirishning yangi tartibi ko'rib chiqildi.

“Xorijda ish” migratsiya platformasini yanada takomillashtirish, unga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali ish beruvchilar va aholi uchun yengillik hamda qulaylik yaratish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari Migratsiya agentligi faoliyati faqat tashqi mehnat migratsiyasi bilan cheklanib qolmasdan, ichki mehnat bozorini sifatli kadrlar bilan ta'minlashga ham xizmat qilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Fuqarolarni xorijda qonuniy va xavfsiz mehnat faoliyatiga jalb qilish bilan birga ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi ham muhokama qilindi. Ularining sog'lig'i, yashash va mehnat sharoitlarini doimiy monitoring qilib borish zarurligi ta'kidlandi. Shu maqsadda 37 ta davlatda qo'llab-quvvatlash ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, 48 ming nafar fuqaroga ijtimoiy, 17 ming nafariga huquqiy, 6 ming nafariga moddiy yordam ko'rsatilgani ma'lum qilindi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda vaqtincha ro'yxatda turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ruxsatnomasiz ishlash holatlarini tartibga solish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Bu borada idoralararo hamkorlikni yo'lga qo'yib, noqonuniy migratsiyani tahlil va prognoz qilish, norasmiy mehnatni legallashtirish, milliy qadriyatlar hamda mamlakatimizda bo'lish qoidalarini tushuntirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, tashqi mehnat migratsiyasini zamon talablariga mos ravishda tashkil etish, sohada raqamli yechimlardan keng foydalanish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA



Davlat va jamoat arbobi, mehnat faxriysi Rim Abdulovich Giniyatullin 83 yoshida vafot etdi.

Rim Giniyatullin 1943-yil 18-sentabrda Jizzax viloyatining Zomin tumanida tug'ildi. 1963-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash institutini (hozirgi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti”) milliy ta'lim universiteti) muhandis-gidrotexnik yo'nalishi bo'yicha tugatdi. Mehnat faoliyatini O'zbekiston qurilish vazirligida oddiy ishchi sifatida boshlab, keyinchalik ushbu vazirlikda usta, bosh muhandis vazifalarida xizmat qildi. U O'zbekiston suv xo'jaligi vazirligida boshqarma boshlig'i o'rinbosari, bosh boshqarma boshlig'i, suv xo'jaligi vaziri o'rinbosari, Davlat reja qo'mitasi raisining o'rinbosari, Davlat agrosanoat

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, S. TURDIYEV

TARIXIY VOQEA: O'ZBEKISTON BMTNING MUHIM TUZILMASI A'ZOSI

O'zbekiston tarixida ilk bor BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat odil sudlov masalalari bo'yicha komissiyasiga 2027-2029-yillar davriga a'zo etib saylandi.

Nyu-York shahrida BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC) sessiyasi doirasida saylov o'tkazildi. Unda komissiyaga Osiyo-Tinch okeani mintaqaviy guruhi doirasida ajratilgan 4 ta o'rin uchun Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Saudiya Arabistoni bilan bir qatorda O'zbekiston ham da'vogarlik qildi. O'zbekiston nomzodi ECOSOCning barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi.

Uch yillik a'zolik muddati 2027-yil 1-yanvardan boshlanadi va O'zbekiston uchun qator muhim imkoniyatlarni taqdim etadi. Jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha xalqaro norma va standartlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etish, huquq ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishda



mas'uliyatli hamkor sifatidagi nufuzni mustahkamlash, BMT tuzilmalari va yetakchi xorijiy hamkorlar bilan amaliy munosabatlarni kengaytirish, milliy odil sudlov tizimini modernizatsiyalash uchun xalqaro ekspertlik va texnik ko'makni jalb qilish kabilar shular jumlasidandir. Ushbu muhim voqea munosabati bilan O'zbekistonning komissiyadagi ishtirokini samarali tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab

Tahririyat



Bugunning gapi

MILLAT GENOFONDI VA YOSHLAR KELAJAGIGA XAVF

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurash bugun dunyo hamjamiyati oldida turgan eng jiddiy global muammolardan. Yurtimizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish barobarida bu illatni keltirib chiqaradigan sabab va omillarni bartaraf etishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 3-noyabrda “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni ham ayni shu maqsadlarga qaratilgan.

Farmon mamlakatimizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024-2028-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyaning ustuvor maqsadlariga erishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qamrab oladi.

O'tgan davrda farmon bilan tasdiqlangan Giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi ijrosi izchil ta'minlanmoqda.

Birgina o'tgan yili huquqni muhofaza qilish organlarining hamkorlikdagi sa'y-harakati natijasida 15 mingdan ortiq narkojinoyat, 14 ta narkolaboratoriya va qadoqlash joylari aniqlangan. Shuningdek, 13 mingdan ortiq narkografit yo'q qilingan.

Ushbu jinoyatlarni sodir etgan 11 mingdan ortiq shaxs jinoyi javobgarlikka tortilib, noqonuniy muomaladan olingan 3 tonnadan ziyod giyohvandlik vositasi, 2 million donadan ortiq kuchli ta'sir qiluvchi dori hamda umumiy hisobda 26 gektar yerda yetishtirilgan giyohvandlik o'simliklari belgilangan tartibda yo'q qilingan.

Xalqimizda kasalni davolagandan ko'ra, oldini olgan afzal degan naql bor. Shu ma'noda, aholi orasida bu illatga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlari kuchaytirilmoqda. Ayniqsa, yosh avlod vakillarini bundan muhofaza qilish maqsadida giyohvandlik va psixotrop vositalar tarqalishining oldini olish borasida kompleks tezkor-profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda. Xususan, 2025-yilda ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlarda 53 mingdan ziyod uchrasuv tashkil etilib, 1,5 milliondan ortiq yosh sport musobaqalari, madaniy-ko'ngilochar tadbirlarga qamrab olingan. Muhimi, giyohvandlikka qarshi kurashishda ilmiy yondashuvlar, moddiy-texnik baza va ekspert-kriminalistika sohasi takomillashtirildi. Bunda sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida ishlaydigan maxsus dasturlar, ma'lumotlar tizimi ishlab chiqilyapti.

Xavfsizlik — jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan. Mazkur yo'nalish davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida. Joriy yil yanvarda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham bu boradagi

ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Unga ko'ra, xavfsiz muhitni shakllantirish va jinoyatchilikka qarshi kurashni tizimli ravishda kuchaytirish uchun mamlakat bo'ylab huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida keng ko'lami ishlari bajarilmoqda.

Samarqand shahrida 20-21-aprel kunlari bo'lib o'tayotgan “Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish” mavzusidagi xalqaro forum ham narkotahdidlarga qarshi kurashishda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, davlatlar o'rtasida amaliy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi platforma vazifasini o'tayotir.

Prezidentimiz shu munosabat bilan xalqaro forum ishtirokchilariga yo'llagan murojaatida narkojinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurashishda ishtirokchi davlatlar huquq-tartibot idoralari ma'lumotlar bazalarini birlashtiradigan, sun'iy intellekt asosida ishlovchi yagona raqamli platformani ishga tushirish taklif etildi.

Noqonuniy mablag'lar harakatini dunyo bo'ylab avtomatik aniqlaydigan va ularni qabul qilgan moliyaviy tashkilotlarni xavf toifasiga kiritadigan “Xalqaro raqamli qora kod” tizimini yaratish ham bugunning dolzarb takliflaridan. Murojaatda sintetik narkotiklar turi ortib borayotgani, bu borada doimiy mulohat maydonini shakllantirish, zamonaviy davolash metodika va standartlarini birgalikda ishlab chiqish zarurligi alohida qayd etildi.

Shuningdek, giyohvandlikka chalinganlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha tajriba almashish maqsadida Markaziy Osiyo narkologlar assotsiatsiyasini tashkil etish, bosh ofisida Samarqand shahrida joylashtirish taklif etilgani alohida ahamiyatga ega.

Umuman, forum davlat organlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, ekspertlar va akademik hamjamiyat vakillarini birlashtirib, ayni yo'nalishdagi dolzarb muammolarni muhokama qilish va transmilliy giyohvandlik tahdidlariga qarshi kurashish bo'yicha amaliy yechimlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zufarbek ABDIXALILOV, Bojxona qo'mitasi Toshkent viloyati bo'yicha boshqarmasi yoshlar yetakchisi

TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHDA HAMKORLIK

Samarqandda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi hamkorligida “Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish” mavzusidagi global forum tashkil etildi.

Anjuman avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning forum qatnashchilariga murojaatini Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva o'qib eshittirdi.

Murojaatda narkotiklar savdosi transchegaraviy va virtual xarakterga ega bo'lib borayotgan bir paytda mamlakatimizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish masalasi umumimilliy harakatga aylangani, so'nggi yillarda sohada idoralararo hamkorlikni mustahkamlash, profilaktika mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan 20 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani alohida qayd etilgan. 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi va boradagi eng katta qadam bo'ldi. Ana shu sa'y-harakatlar tufayli keyingi yillarda narkotiklarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichi 2,5 barabarga oshdi, musodara qilingan giyohvandlik vositalari 2 barabarga, yo'q qilingan sintetik narkotiklar 7 barabarga ko'paydi.

Birgina o'tgan yilning o'zida huquq-tartibot idoralari tomonidan 15 mingdan ziyod narkojinoyat fosh etildi, qariyb 3,5 tonna giyohvandlik vositalari, jumladan, 120 kilogramm sintetik narkotiklar yo'q qilindi, 14 ta yashirin narkolaboratoriya va 72 ta yirik internet-do'koni faoliyatiga chek qo'yildi. Joriy yilning birinchi choragida esa bu ko'rsatkich 10 tani tashkil etdi, 35 ta uyushgan narkojinoyat guruh faoliyatiga chek qo'yilib, ularning 8 nafar liderlari va 130 nafar a'zolari qo'lga olindi.

Murojaatda bugungi kunda narkojinoyatlarning uchdan bir qismi yoshlar tomonidan sodir etilayotgani, asosiy xavf guruhini 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qilayotgani, bu illatning aholi genofondiga juda katta tahdid ekanligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari o'z murojaatida giyohvandlikka qarshi kurashish butun insoniyatning umumiy

mas'uliyati va majburiyati ekanligini qayd etib, narkojinoyatlarning oldini olish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surgan.

Forum qatnashchilari Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab, O'zbekistonda giyohvandlik va narkojinoyatlarning oldini olish hamda bu illatga qarshi kurashish borasidagi ishlarni e'tirof etdi.

Xususan, BMTning narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi ijrochi direktori o'rinbosari Bo Matiasen O'zbekistonda giyohvandlikka qarshi kurashish, aholi, ayniqsa, yoshlarni bu illatdan asrash borasida davlat tomonidan muhim dasturlar amalga oshirilayotganini ta'kidlaydi.

— Bugungi kunda narkojinoyatlar va bu illat targ'ibotida ijtimoiy tarmoqlar, kriptovalyutalar hal qiluvchi rol o'ynamoqda, — dedi Bo Matiasen. — Shuning uchun O'zbekistonda o'tgan yil alohida server tashkil etildi va ushbu turdagi jinoyatlarni barvaqt aniqlash, oldini olishga erishilmoqda. Hukumatning faol ishtiroki borayotgani, Markaziy Osiyo davlatlari bilan faol ma'lumot almashilayotgani va o'zaro hamkorlik natijasida giyohvand moddalar aylanmasining 60 foizi chegaralardayoq to'xtatilmog'ini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, sintetik narkotiklar ko'payishining oldini olish, psixotrop dori vositalari noqonuniy muomalasini cheklash borasidagi ishlarni ham diqqatga sazovor va ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish lozim.

Forum ochilishida so'zga chiqqan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bosh direktori Tedros Gebreyesus giyohvandlik va narkotahdidlar sog'liqni saqlash uchun juda katta xavf ekanligini ta'kidlaydi.

— Bugungi kunda dunyo bo'yicha taxminan 300 million kishi giyohvand moddalarni iste'mol qiladi, ular safga har yili 600 ming kishi qo'shilmoqda, bu illatdan qurbon bo'layotganlar soni esa yildan yilga oshib bormoqda, — dedi Tedros Gebreyesus. — An'anaviy giyohvandlik bilan birga

sintetik narkotik ulushi ko'paymoqda. Bu fakt va raqamlar masalaning qanchalik keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. Eng yomoni, bu illat dunyo xalqlari genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli bugun narkotahdidlarga qarshi birgalikda kurashish, kuch va vositalarni safarbar etish lozim. Ushbu yo'nalishda O'zbekistonda olib borilayotgan ishlarni diqqatga sazovor, albatta. Men ushbu mamlakatga bu galgi tashrifim davomida davlat rahbari va yuqori darajadagi mulozimlar bilan uchrashib, bu borada muhim masalalarni muhokama qilishni rejalashtirganman.

Forum sho'ba majlislarida giyohvandlik va narkotahdidlarga qarshi kurashishda ta'lim va profilaktika, xalqaro hamkorlik, giyohvandlarni davolashning samarali usullari, xavfsizlik va huquq-tartibot organlari faoliyati, narkotiklar ustidan nazoratning ilmiy-innovatsion yondashuvlari kabi mavzular muhokama qilindi.

Tadbir doirasida 2003-yildan buyon Yevropa Ittifoqi tomonidan moliylashtirilayotgan Markaziy Osiyoda giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha CADAP-8 (Central Asia Drug Action Programme) xalqaro mintaqaviy dasturini imzolash marosimi o'tkazildi.

Shuningdek, narkojinoyat uyushgan guruhlariga qarshi kurashishda qo'llanilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, texnik vositalar, mahalliy ishlab chiqarilgan maxsus jihozlar namoyish etish maqsadida xalqaro ko'rgazma tashkil etildi. Ko'rgazma forum ishtirokchilari, xususan, xorijiy soha mutaxassislarida katta qiziqish uyg'otdi. Anjumanda giyohvandlikka qarshi kurashish, aholini ushbu illatdan asrash borasida amalga oshirilgan ishlarga o'zishgan salmoqli hissasi, shuningdek, mamlakatimiz bilan mazkur yo'nalishdagi faol hamkorligi uchun qator xalqaro tashkilotlar rahbarlari maxsus ta'sis etilgan “Narkotiklarga qarshi kurashish fidoyisi” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Forum doirasida 21-aprel kuni Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkilotining yoshlar tarmog'i vakillari ishtirokida ilk bor narkotahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro yoshlar sammiti o'tkazildi.

G'olib HASANOV, O'ZA muxbiri

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

Ba'zan katta o'zgarishlarni sezish uchun uzoqqa borish shart emas. Ertalab mahalla ko'chasidan o'tayotib, yangi qurilgan uylar, ravon yo'llar, qator avtomobillar, bolalar kulgisiga to'lgan hovilar, ishga shohayotgan odamlar chehrasidagi mamnunlikni ko'rishning o'zi kifoya. Chunki bugungi hayot kechagidan farq qilayotganini, orzular asta-sekin haqiqatga aylanayotganini aynan shu manzaralar orqali ham his qilish mumkin. Ajablanarlisi, bu o'zgarishlar juda qisqa muddatda hayotimizga kirib keldi.



Erkin XOLMATOV, Xalq deputatlari Jizzax viloyati kengashi deputati

Bugun yangi O'zbekiston haqida gap ketganda, biz faqat rejalar yoki niyatlar haqidagina emas, balki hayotimizning har bir jabbasida namoyon bo'layotgan amaliy natijalar to'g'risida so'z yuritaymiz. O'tayotgan o'n yildagi keng ko'lami va chuqur mazmunli islohotlar yurtimiz taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Bir vaqtlar orzu bo'lib tuyulgan yurt taraqqiyotining yangi davri bugun allaqachon hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, real voqeilik sifatida har bir inson, har bir oila taqdirida namoyon bo'lmoqda.

Eng muhimi, bu islohotlar markazida inson turibdi. Uning qadri, sha'ni, orzu-intilishlari

davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Azaldan "qornim deb emas, qadrim deb" yashagan xalqimiz uchun bu shunchaki shior emas, balki hayot haqiqatiga aylanmoqda. Bugun odamlar o'z muammosi bilan yolg'iz emasligini, ularni eshitadigan, tushunadigan va amaliy yechim topadigan tizim shakllanganini chuqur his etmoqda.

Ayniqsa, aholi muammolarini manzilli hal etish, kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlar ko'plab oilalar taqdirini o'zgartirdi. Ilgari turmush og'irligi sabab imkoniyatleri cheklangan insonlar bugun tadbirkorlikka qadam qo'yimoqda, kasbhunar o'rganib, o'z daromad manbaini yaratmoqda. Mahallalarda "Temir daftar", "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar" kabi tizimlar orqali har bir inson taqdiriga alohida e'tibor qaratilayotgani, muhtoj oilalarga aniq va samarali ko'mak berilayotgani islohotlarning eng insoniy jihati.

Bugungi kun odamlarining dunyoqarashi ham tubdan o'zgardi. Agar ilgari ko'pchilik bor imkoniyat bilan cheklanib yashagan bo'lsa, bugun har bir insonda intilish, harakat, ertangi kunga ishonch bor. Odamlar o'z farzandlarining ta'limi, oilasi farovonligi, shaxsiy rivoji haqida kengroq o'ylay boshladi. Har bir xonadonda turmushni yengillashtiruvchi zamonaviy sharoitlar

yaratilayotgani, hatto eng chekka qishloqlarda ham yangi uylar, obod ko'chalarda barpo etilayotgani o'zgarishlarning ko'zga ko'rinarli samarasidir.

Eng muhimi, bu islohotlar insonni o'zgartira boshladi. Bugungi fuqaro kuzatuvchi bo'lib qolmay, balki o'z hayotining faol bunyodkoriga aylanmoqda. Uning ovozi, fikri, tashabbusi qadr topyapti. Bu esa jamiyatda o'zaro ishonch, hamjihatlik va birlik muhitini yanada mustahkamlamoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, islohotlar samarasi eng avvalo joylarda, odamlar hayotida, kundalik turmushida namoyon bo'layotgani bilan ahamiyatli. Buni men deputat sifatida o'z faoliyatim davomida bevosita his qilib kelmoqdaman.

Yaqinda Zomin va Zarbdor tumanlaridagi saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazdik. Unda aholini qiyayotgan dolzarb muammo va masalalarni tinglab, ular atroficha o'rganildi. Shuningdek, ehtiyojmand va kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olib, ularning turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan taklif va tashabbuslar belgilandi. Bu uchrashuvlar oddiy rasmiy tadbir emas, balki inson qalbiga yo'l topish, muammolari tinglash, hayotiga yengillik olib kirishga qaratilgan samimiy muloqotlarga aylandi.

odamlar ularni mas'ullar tinglayotgani, qadr topayotganini his etyapti.

Oddiy bir misol. Zarbdor tumani "Oqar" mahalla fuqarolar yig'ini yashovchi Iroda Jumanova bilan muloqotimiz bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Uning tomonidan suyuqlantirilgan gaz balloni bilan ta'minlash hamda o'z kasbi — hamshirlik yo'nalishida malaka oshirish masalalari ko'tarildi. Bu murojaat o'sha joyning o'zida mutasaddilar bilan birgalikda ko'rib chiqilib, ijobiy hal etildi.

Bir qarashda oddiy masaladek tuyulishi mumkin. Ammo aslida bu bir oilaning turmushidagi og'irlik yengillashdi, bir ayolning o'z kasbi orqali daromad topishi jamiyatda o'rni mustahkamlanayapti, degani. Bu ham islohotlarning haqiqiy mazmuni — inson taqdiriga daxldorlik ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Bu kabi jonli misollar shundan dalolat beradiki, agar aholi murojaatlariga rasmiyatchilik bilan

ularning dardini o'z dardimizdek qabul qilish, hamjihatlikda ish olib borish talab etiladi.

Bugun kambag'allikni qisqartirish, aholini ish bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bejiz emas. Chunki inson farovonligi — jamiyat taraqqiyotining eng muhim mezon. Jizzax viloyatida ham bu borada salmoqli ishlar qilinmoqda. Joriy yilda qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va boshqa sohalarida tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida loyihalarni moliyalashtirish uchun 295 milliard so'm yo'naltirildi.

Bu mablag' shahar va tumanlar kesimida adolati taqsimlanib, o'nlab yangi loyihalarni hayotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda. Natijada yangi ish o'rinlari yaratilayapti, oilalar daromadi oshmoqda, kambag'allik darajasini 4,9 foizdan 3 foizga tushirishdek ayta va ulkan mas'uliyat qo'yilmoqda. Bu raqamlar ortida esa minglab insonlar taqdiri, ularning orzu-umidlari aks etib turibdi.

Albatta, bunday natijalarga erishishda eng muhim omil xalq bilan ochiq va samimiy muloqot sanaladi. Chunki aynan ana shunday uchrashuvlarda odamlarning haqiqiy muammolari yuzaga chiqadi, ularga joyida turib yechim topish imkoniyati paydo bo'ladi.

Viloyatimizda 304 ta mahallada 278 mingdan ortiq xonadon, 1 million 533 mingdan ziyod aholi istiqomat qilayotgani, har bir xonadon ortida alohida bir hayot, alohida bir taqdir borligini anglash biz deputatlar zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi.

Shu ma'noda, uyma-uy yurib, aholi bilan bevosita muloqot qilish, fuqarolar tomonidan o'rtaga tashlanayotgan muammolari o'rganish va ularga yechim topish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Chunki inson qalbiga yo'l topish islohotlarning eng to'g'ri va eng qisqa yo'lidir.

Albatta, erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolish mumkin emas. Hayot o'ldirmas yangi talab va vazifalarni qo'yimoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida belgilangan ulkan maqsadlar har birimizni yanada faol, yanada mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Zero, taraqqiyot — to'xtovsiz jarayon.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, oldimizdagi yuksak marralarga faqat birgalikda — mahalla faollari, nuroniylar, ayollar, yoshlar, ziyolilar, tadbirkorlar, vatan posbonlari, butun xalqimiz bilan yelkadosh bo'libgina yetib borishimiz mumkin. Chunki bu yurtning haqiqiy kuchi uning odamlari mehnati, ishonchi va yuksak orzu-intilishlarida aks etadi.

Shu bois, bugungi islohotlar nafaqat davlatni, balki inson taqdirini ham o'zgartirmoqda. Ular har bir oilaga nur, har bir yurakka umid, har bir kunga mazmun bag'ishlamoqda. Eng muhimi, odamlar bu o'zgarishlarni faqat ko'rib emas, balki o'z hayotida his qilib yashayotir.

O'ZGARISHLAR SHAMOLI ESIB TURGAN YURT NAFASI



Biz kirib borgan xonadon egalari o'z muammolarini ochiq ayta boshlagani, yechim topilishiga ishonayotgani islohotlarning eng katta yutuqi, desak mulog'ga bo'lmaydi. Chunki

emas, balki vijdonan, mas'uliyat bilan yondashilsa, joylarda yechimini kutib yotgan qanchadan qancha muammolari hal etish mumkin. Buning uchun esa, eng avvalo, xalq bilan birga bo'lish,

Orol va hayot

Orol fojiasi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo uchun dolzarb muammodir. Insoniyatga tabiatdan noto'g'ri foydalanishning og'ir oqibatlaridan saboq berayotgan ushbu global muammo tufayli, ayniqsa, mintaqamiz davlatlari katta ijtimoiy-iqtisodiy zarar ko'rmoqda. Birgina misol, Orolqumdan yiliga 100 million tonna chang va tuz ko'tariladi. Bu, o'z navbatida, turli kasalliklarga sabab bo'lishi, yerning sho'rlanish jarayonini tezlashtirishi mumkin. Orol dengizi qurishi natijasida 3 million gektar maydon yaroqsiz holga kelgani va hududning 56 foizi shamol eroziyasi ta'siri ostidagi, yurtimiz sharoitida yer resurslari yomonlashuvi iqtisodiyotimizga har yili 830 million dollar ziyon keltirayotgani ham zarar ko'lamining naqadar kengligini anglatadi.



MINTAQAVIY EKOLOGIK BARQARORLIK ASOSI

Shuning uchun Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni yaxshilashga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilmoqda. Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish, jumladan, dengizning qurigan tubini yashillashtirish, ya'ni keng ko'lami tiklanish ishlari olib borilmoqda.

Keyingi yillarda Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyusiyasi qabul qilindi, 2018-yilda esa Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosidagi trust fondiga asos solingani va masalaning naqadar o'tkir ekanini va O'zbekiston uning yechimiga jiddiy kirishganidan dalolat beradi.

E'tiborlisi, bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettiriladi. Xususan, yangilangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'yi hamda boshqa cho'l hududlarida qo'shimcha 1,3 million gektar maydonida "yashil qoplamalar" barpo etish, shuningdek, "Yashil iqlim" va Global ekologik jamg'armalarning bioxilma-xillik, iqlim o'zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 30 million dollar qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish kabi katta vazifalar belgilangan shunday deyshimizga to'la asos yaratadi.

Ayniqsa, Orolni qayta tiklash borasida mintaqa mamlakatlari o'zaro hamkorlikda katta natijalarga erishayotgani diqqatga sazovor. Jumladan, dengizdagi suv hajmi 2025-yil oxiriga kelib, 23 milliard kub metrga yetdi, 2022-yilda bu ko'rsatkich 18,9 milliard kub metrni tashkil etgan edi. Qayd etish kerak, bunda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi muhim rol o'ynamoqda.

Jamg'armaning bu boradagi ahamiyati borasida Prezidentimiz Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining 2023-yil 15-sentabrda bo'lib o'tgan navbatdagi yig'ilishida "Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi bu, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlarining global miqyosdagi eng o'tkir muammolardan birini yechish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlik borasidagi noyob tajribasidir", degandi.

Jamg'arma faoliyatiga 33 yil bo'lgan esa-da, keyingi o'n yillikdagina uning amaliy harakatlari sezilarli darajada o'zgardi, foydalilik ko'effitsiyenti karrasiga ortdi. Shu ma'noda aytish mumkinki, jamg'arma ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining joriy yil 22-23-aprel kunlari Ostonada o'tkazilishi reja qilingan navbatdagi yig'ilishi hamda mintaqaviy ekologik sammitlar samarali yangi loyihalarni ishlab chiqilishiga asos bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Bu fojia mintaqa aholisi uzoq yillardan beri kurashib kelayotgan global ekologik muammolardan. Davlatimiz rahbari o'tgan yili 4-5-aprel kunlari Samarqand xalqaro iqlim forumida so'zlagan nutqida "Biz allaqachon insoniyatning eng yirik fojialaridan biri — Orol dengizi qurishi oqibatlarini boshdan kechirmoqdamiz", deya qayd etgani bejiz emas.

O'zbekiston ushbu fojiani qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini teran anglagan holda Orolni qayta tiklash, dengizning qurigan qismini ko'kalamzorlashtirish borasida katta loyihalarni amalga oshirmoqda. 2021-yilda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" loyihasi shulardan biri.

Besh yildan buyon "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tonna ko'chat ekilib, o'tgan davrda 2000 gektardan ziyod maydonda 24 ta yashil bog' va yashil

jamoat parki, 47 ta massivda "Yangi O'zbekiston bog'lari" barpo etildi. Umuman, qisqa muddatda respublikaning yashillik darajasi 8 foizdan 14,2 foizga oshdi.

Ushbu loyiha doirasida 2025-yilda Orol dengizi tubida 100 ming gektar "yashil maydon" barpo etilgan bo'lsa, joriy yil Qoraqalpog'iston, Xorazm, Buxoro va Navoiyda jami 250 ming gektar, jumladan, Orolning qurigan tubida 115 ming gektar yerda daraxt va butalar ekilishi rejalashtirilgan.

Bu ishlar hisobot uchun ko'r-ko'rona qilinmayapti. Hududlarning iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda unga mos ko'chatlar yerga qadalmoqda. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarining tanlangan hududlarida sho'r va suvsizlikka chidamli o'simliklar (galofit) bog'lari tashkil etilyapti. Ayrim hududlarda in-vitro laboratoriyalari ochilib, hududlarning tabiiy sharoitiga mos turlar yetishtirilmoqda.

Sho'rlanish kuchli bo'lgan Orol dengizining qurigan maydonida arundo donaks deb ataluvchi ekin turi ekilmoqda. Arundo donaks ko'p yillik qamish, odatda 6 metrgacha o'sadi. Qulay sharoitda esa bo'yi 10 metrdan oshishi mumkin. Bu esa hududdan tuzli chang havoni ko'tarilishiga to'sqinlik qiladi.

Amudaryo va Sirdaryo umumiy boyligimiz

Amudaryo va Sirdaryo havzalari mintaqadagi daryo suvlarining 90 foizigacha qismini ta'minlaydi. Xalqaro ekspertlarning qayd etishiga, ushbu daryolarda suv oqimi kamayishi natijasida, 2040-yilga borib, Markaziy Osiyo mamlakatlari yuqori darajadagi suv taqchilligiga duch kelishi mumkin. Bu mintaqaning 80 milliondan ortiq aholisiga ta'sir qiladi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonda esa sug'orish tizimi va sanoat daryodagi suvga bog'liq. Kanallar va drenajlar eskirgani sababli sug'orish tizimlarida suv isrofi 30-40 foizgacha, ayrim hududlarda 50 foizgacha bo'ladi. So'nggi yillardagi iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilikning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri kuchayib, vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda.

Bunga qarshi O'zbekistonda kerakli chora-tadbirlar ko'rilmog'da. Jumladan, suv resurslarini tejash maqsadida irrigatsiya tizimlari betonlashtirilmoqda. Suvni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqarish bo'yicha sanoat bazasi yaratilyapti, sug'oriladigan yerlarning deyarli yarmida ana shunday texnologiyalar joriy etilgan. Natijada 2024-yil 8 milliard metr kub suv tejaldi.

Shu bois, davlatimiz rahbari o'tgan yili Samarqand xalqaro iqlim forumida Markaziy Osiyo davlatlarini suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish va bu sohada mintaqaviy dasturni ishga tushirishga chaqirgandi.

Haqiqatan, Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorlikda mazkur muammolarga qarshi kurashishi lozim. Bu borada ayni paytda qator qo'shma loyihalar ro'yog'ba qaytarilmoqda. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlat rahbarlari mintaqadagi muammolari o'zaro hamjihatlikda hal etishga kirishgan.

Jumladan, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida Qambarota GES-1 loyihasini birgalikda amalga oshirish to'g'risidagi bitim mintaqaning suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish amaliyotida yangi sahifa ochgani qardoshlarcha hamkorlikning yorqin dalilidir. Toshkent va Bishkek o'rtasida Chashma bulog'idan birgalikda foydalanish

to'g'risidagi kelishuv ham oqilona murosaga misol bo'la oladi.

O'zbekiston va Tojikiston ishtirokida Zarafshon daryosida Yovon va Fondaryo GESlarini qurish bo'yicha hamkorlik oldinga siljimoqda, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston o'rtasida Bahri Tojik suv omborini vegetatsiya davrida kelishilgan tartibda ishlatish, shuningdek, Turkmaniston bilan hukumatlararo bitim doirasida Amudaryo suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Bu suv resurslarini birgalikda boshqarishni yaxshilaydi hamda ekologik muammolar xavfini kamaytiradi.

"Yashil" energetika tabiiy muvozanatni saqlaydi

Ekologik muvozanatni yaxshilash uchun dunyo davlatlari ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa turli sohalarida "yashil" energiyadan foydalanishga o'tmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari ham keyingi yillarda bu yo'nalishga jiddiy e'tibor qaratmoqda.

Xususan, O'zbekistonda so'nggi besh yilda 6 ming megavattli quyosh, shamol va gidro elektr stansiyalar ishga tushirildi, umumiy generatsiyada "yashil" energiyaning ulushi 30 foizga yetdi.

2025-yil so'ngigida xorijiy hamkorlar bilan jami 3,5 ming megavattli, 4 milliard 200 million dollarli yangi "yashil" quvvatlar qurilishiga start berildi. Bu ishlar orqali 2026-yilning o'zida 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejaldi va havoga 11 million tonna zararli modda chiqishining oldi olindi.

Bularning barchasi 2030-yilgacha qo'shimcha 17 ming megavattidan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari ishga tushirilishi, natijada "yashil" energiyaning jami generatsiyadagi ulushi 54 foizga yetkazilishiga xizmat qiladi.



O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan birgalikda muqobil energetikadan turli sohalarida foydalanish bilan birga, uni Yevropa bozoriga eksport qilishni ham ko'zlagan.

Bu yo'nalishda Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorlikda katta loyihalarga qo'l urmoqda. Xususan, Qozog'iston va Ozarbayjon bilan hamkorlikda Yevropaga elektr energiyasi eksport qilish uchun "yashil yo'lak" loyihasi kun tartibiga keltirilgan.

Bokudagi COP29 sammitida imzolangan kelishuv asosida amalga oshirilayotgan bu loyiha doirasida ayni paytda tizimli ishlar qilinmoqda. Unga ko'ra, Kaspiy va Qora dengiz ostidan kabel turli orqali Yevropaga "yashil strategik yo'lak" barpo etilib, "yashil" energiya eksport qilinishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda Italiya kompaniyasi tomonidan texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Qo'shni davlatlar bilan yagona energetika bozorini yaratish yo'lidan borilmoqda. Bu dunyo energetika bozorida Markaziy Osiyo o'zining yirik o'miga ega bo'lishini bildiradi.

Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlardagi hamkorlikda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Jamg'arma ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining yaqinda bo'lib o'tadigan majlisi esa bu borada keyingi qadamlar, kelgusida o'zaro hamkorlikda amalga oshirish zaruri bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab olish nuqtayi nazaridan mintaqaning barcha davlatlari uchun birdek manfaatlidir.

Sanjar ESHMURODOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bugun qurilish loyihalarini shunchaki yaratib bo'lmaydi, har bir jihat aniq ko'rsatilishi kerak. Bu esa arxitekturani nafaqat san'at, balki qurilishlarning asosiy qismiga aylantiradi. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ko'plab loyihachilar ishtirok etgani boisi shunda.



Kun mavzusi

Qurilish ishlari oddiy bino ko'tarishdangina iborat bo'lgan vaqtlar o'tdi. Bugun bunyod etilayotgan har bir inshoot shaharsozlik talab va me'yorlariga javob berishi kerak. Qurilish joyini tanlashdan tortib, unga mos loyiha va dizayn yaratishgacha bo'lgan ishlarning bari bir nuqtada uyg'unlashadi. Shu tariqa shaharlarning umumiy qiyofasi, arxitektura dizayni paydo bo'ladi.

ENDI QURILISHLARDA VAQT VA MABLAG' TEJALADI

Tadbirkorlarni qiynayotgan eng katta masalalarga yechim berildi

Yangi O'zbekistonda oxirgi yillardagi qurilishlar misolida buni yaqqol ko'rish mumkin. Zero, bugun yurtimizda qurilish va shaharsozlik mutlaqo yangi normalar, zamonaviy yondashuvlarga asoslanmoqda. Loyihalar har bir shaharning joylashuvi, madaniy va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanayotgani ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, poytaxtdagi qurilishlarning aksariyati zamonaviy shahar qiyofasini aks ettirsa, Samarqand, Buxoro kabi tarixiy shaharlarda madaniy yo'nalishdagi arxitektura talablari ko'proq inobatga olinadi. Bunday yondashuvlar urbanizatsiya, arxitektura-dizayn yo'nalishlarini ham rivojlantiryapti.

Qurilish sohasining o'zi esa alohida mavzu. Birgina uy-joy qurilishini olaylik. Yaqin vaqtgacha O'zbekistonda bir yilda bir necha yuz xonadonli ko'p qavatli uylar qurilsa ham katta gap edi. Sohada to'planib qolgan muammolarni-ku, aytmasa ham bo'ladi. Uy-joy fondini boshqarish tizimi samarasizligi boisi, ta'mirlash va xizmat ko'rsatish uchun mablag' doimiy yetishmasdi. Boshqa tomondan, aholining arzon uy-joylarga talabi nihoyatda yuqori edi.

2017-yildan bu yo'nalishda katta marra olindi. Yurtimiz bo'ylab turar va noturar joylar qurilishi shiddatli tus oldi. Minglab xonadonga ega ko'p qavatli uylar qad rostlay boshladi. Avvaliga shuncha uyda kim yashaydi, bunga talab bormi o'zi degan fikrlar ham bildirildi. Bugun esa quruvchi kompaniyalar soni va aholiga uy-joy taklifi qancha ko'p bo'lmasin, bariga talab bor. Chunki sohada nafaqat tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi, balki aholining arzon uy-joy sotib olish qobiliyatini oshirish mexanizmlari, xususan, zabol muddatli ipoteka kreditlari va boshqa ko'plab zamonaviy takliflar berilmog'chi.

Natijada keyingi to'qqiz yilda O'zbekistonda bu soha shu qadar rivojlandiki, qurilish ishlarning hajmi 2016-yildagi 30 trillion so'mdan o'tgan yili 314 trillion so'mga yetdi. Shu yillar mobaynida 647 ming xonadonli 15 mingdan ortiq ko'p qavatli uy-joy barpo etildi, mamlakatimizda qariyb 10 mingta yangi qurilish korxonasi ish boshladi. Assosiyi, bular shunchaki qurilish emas, balki xalqaro standartlarga asoslangan yirik loyihalardir. Ular shaharsozlikning boshqa talablari va yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirilib, endi quruvchilar odamlarga yashash joyi bilan birga zamonaviy infratuzilma, qulay ekologik muhit va yashil hududlarga ega maskanlarni taklif qilyapti.

Jahon tajribasida puxta o'ylangan shaharsozlik siyosati va keng ko'lami uy-joy qurilishi uyg'unlashganda iqtisodiy yuksalish hamda hayot sifati oshishi o'z isbotini topgan. Ko'plab davlatlarda urbanizatsiyaning muvozanatli modeli joriy etilib, unda uy-joy qurilishi bir paytning o'zida infratuzilma, hududiy rivojlantirish va yuqori sifatlil shahar muhitini shakllantirish orqali namoyon bo'lmoqda. Qolaversa, odamlarning aynan shunday zamonaviy shaharlarda yashashga bo'lgan talabi ortib boryapti.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda yurtimiz aholisi 38 milliondan oshib, ularning 20 millioni shaharlarda yashamoqda. Bu shaharsozlikni yanada rivojlantirish, zamon talablariga moslashtirishni taqozo etadi. Keyingi yillarda ayni jihatlariga e'tibor qaratilayotgani, istalgan loyiha avvalida bosh reja ishlab chiqilib, muhokamalarga qo'yilayotgani boisi shunda. Hatto bu muhokamalarda aholining o'zi taklif va tashabbuslari bilan ishtirok etyapti.

Mazkur yo'nalishda ishlar samaradorligini yanada oshirish, tezkorlik va sifatni ta'minlash, tadbirkorlarning ovoragarchiliklarini kamaytirish uchun huquqiy asoslar bo'lishi kerak. Shu maqsadda o'tgan yillar davomida mamlakatimiz qurilish sohasida ruxsat berish bosqichlari uch karra, muddatlar to'rt karra qisqartirilib, 420 ta shaharsozlik norma va qoidasi birlashtirildi, eskilari bekor qilinib, 140 ta yangi norma va qoida tasdiqlandi. Ammo hali sohada hal etilishi zarur bo'lgan masalalar yetarlicha.

Joriy yilning 14-aprel kuni davlatimiz rahbari raisligida uy-joy qurilishi va urbanizatsiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ayni yo'nalishdagi dolzarb masalalar tahlil qilindi. Anchadan beri to'planib kelayotgan muammolar o'rtaga tashlandi. O'tgan yillar davomida yer va kredit kabi asosiy masalalar hal etilgan bo'lsa-da, tadbirkorlar qurilishni boshlash bosqichida haligacha turli to'siqlarga duch kelayotgani, bu jarayonlar oylab-yillab cho'zilayotgani aytiladi.



Ularining yechimi bo'yicha takliflar berilib, urbanizatsiyani barqaror rivojlantirish bo'yicha yagona yondashuv bo'lishi shartli ko'rsatib o'tildi. Davlatimiz rahbari urbanizatsiya darajasining har 1 foiz o'sishi iqtisodiyotga kamida 1 foiz qo'shimcha o'sish olib kelishi, investitsiya oqimi, biznes va startaplar faolligi, mehnat unumdorligi shunga mutanosib ravishda o'tishini ta'kidladi.

— Yig'ilishda bosh rejadan tortib, qurilishni yakunlash va uni ekspluatatsiya qilish masalalariga tahliili ko'rib chiqildi, — deydi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sherzod Hidayatov. — Ochig'ini aytganda, qurilish sohasida kamchiliklar yetarlicha. Oldinlari betartib qurilishlar bo'lgan, bosh reja tasdiqlanmagan, ayrim tadbirkorlar muammoli qurilishlar qilib qo'ygan va hokazo. Natijada aholi va tadbirkorlarni qiynab kelayotgan ko'plab savollar to'planib qolgan. Shu bois, yig'ilishga bir necha oy davomida katta tayyorgarlik ko'ridi. Bu vaqt davomida tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazilib, fikrlari, takliflari, muammolari eshitilib, tahlil qilindi. Bevosita sohada ishlovchilarning taklif va tashabbuslari to'planib, davlatimiz rahbariga taqdim etildi. Tadbirda quruvchilar, arxitektolar, tadbirkorlarning o'zi ishtirok etib, muammolarni o'rtaga tashladi. Davlatimiz rahbari ko'tarilgan masalalarning barchasiga aniq yechimlar berdi.

Masalan, sohadagi eng ko'p uchrayotgan muammolardan biri qurilishga ruxsat berish tizimi bilan bog'liq. O'tgan yili bosh reja yo'qligi vaji bilan yerni xususiy lashtirish bo'yicha 112 ming arizaning 14 foizi, umumiy hisobda esa qurilishga doir 2 million 600 mingdan ziyod arizaning uchdan biri rad etilgani, bu holat orqida ko'p hollarda korrupsiya va ortiqcha byurokratik g'ovlar turgani ko'rsatib o'tildi. Shu bois, qisqa vaqtda sohadagi ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, arizalarga inson omilisiz, bir necha daqiqada onlayn javob beradigan tizimga o'tish, raqamlashtirish va sun'iy intellektni keng joriy etish vazifalari qo'yildi.



Hozir aholi va tadbirkorlar avval loyi-halashga ruxsat olib, keyin arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish uchun alohida-alohida ariza beradi va buning uchun oylab vaqt yo'qotmoqda. Toshkent shahrida ushbu ikki xizmatni bir bosqichda ko'rib chiqish tajribasi joriy etilgan va bu hujjatlarni kelishish muddatlarini 3-4 karra qisqartiryapti. Endilikda mazkur tajriba shu yilning 1-iyulidan boshlab barcha hududlarda joriy etiladi.

Ochiq muloqotda ochilgan muammolar

Har bir raqam ortida real vaziyat turibdi. Muammo va takliflarni esa bevosita soha vakillari, tadbirkorlarning o'zi o'rtaga tashlagan. Ularning ko'pchiligi yig'ilishda ishtirok etib, davlat rahbariga o'zlarini qiynayotgan masalalar haqida gapirdi, takliflarini bildirdi.

Ya'ni bu galgi videoselektor yig'ilishi juda katta formatda, qurilish sohasidagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqot tarzida o'tkazildi. Unda joylardagi studiyalardan videoaloqa orqali 500 dan ziyod tadbirkor, quruvchi, loyihachi, arxitektor va urbanist ishtirok etdi. Ko'pchiligi so'zga chiqib, muloqotning faol ishtirokchisiga aylandi.

— Kompaniyamiz 2025-yilning o'zida 100 ming kvadrat metrdan ortiq turar va noturar binolarni o'z egalriga topshirdi. 2026-yilda 200 ming kvadrat metr uy-joy qurishni reja qilganimiz, — dedi Toshkent shahridagi "Lux city house" korxonasi rahbari Vohid Mirzayev. — Davlatimiz rahbari chet eldagi yurtdoshlarimizni O'zbekistonga olib kelib ish bilan ta'minlash haqida ko'p gapirdi. Shundan kelib chiqib, kompaniyamiz o'tgan yilning o'zida xorijdan kelgan 3 ming kishini ish bilan ta'minlab, munosib sharoitlarni yaratib berdi. Joriy yilda bu ko'rsatkichni ikki barobar oshirish niyatimiz bor.

Yig'ilishda soha tadbirkorlarining muammolari tinglanib, ularga eng maqbul yechimlar berilganini ko'rib, nihoyatda ruhlanib

o'tirdik. Ruxsat olishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdan tortib, lizing tizimidagi masalalargacha hal etish topshirig'i berildi. O'zim ham yig'ilishda bizni qiynayotgan asosiy masalalardan biri — xorijdan olib kelinadigan texnika uchun to'lanadigan boj to'lovini kamaytirishni so'radim. Bu imtiyoz kichik va o'rtaxonalar uchun ham qulay bo'lishi, ularda katta qurilishlar qilish imkoniyati oshishini aytdim. Qolaversa, chet eldan keladigan texnika qancha arzon bo'lsa, quriladigan obyektlar tannaxri ham shuncha tushadi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorning bu taklifi o'rinni ekanini bildirib, qo'llab-quvvatlad. Tegishli tashkilotlarga xorijdan olib kelinadigan texnika vositalari ro'yxatini tayyorlab, ularning boj to'lovlarini kamaytirish bo'yicha topshiriq berdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda ham Prezidentimiz topshirig'i bilan qurilish tashkilotlariga xorijdan maxsus texnika olib kirish bo'yicha imtiyoz berilgan. Natijada o'sha davrda sohada katta o'tish kuzatilib, yurtimizga ko'plab zamonaviy texnika kirib keldi. Endi tadbirkorlarning taklif bilan bu imtiyoz qayta qo'llanildi.

Ko'plab masalalar ana shunday ochiq muloqotlar, davlatimiz rahbarining tadbirkorlarni doimiy eshitishi, fikrlarini qo'llab-quvvatlashi ortidan hal etilayotgani va bu xalqimiz uchun ham manfaatli bo'layotgani ayni haqiqat. Shuning uchun yurtimizdagi har bir soha tadbirkori Prezidentimiz bilan bo'ladigan shunday uchrashuvlarni intiqlik bilan kutadi. Boisi, har gal ochiq muloqotdan so'ng xalqimiz va tadbirkorlarni quvontiradigan katta tashabbuslar ilgari surilib, yangi imtiyozlar amalioyotga joriy etiladi.

Namanganlik tadbirkor Qobil Tursunov ham ochiq muloqotdan unumli foydalanib, davlatimiz rahbariga o'z loyihalari, yangi maqsadlari haqida gapirdi. Soha vakillariga berilayotgan yangi imtiyozlardan ruhlanganini aytib, mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda Namangan shahrida qurilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivida qurilishni rejalashtirgan 4 800 ta xonadonni yil oxirigacha 10 mingta qilib topshirish niyatidagi va buni Prezidentimizga ko'rsatish istagini hayajon bilan gapirdi. Davlatimiz rahbari esa tadbirkorning bu kabi yirik loyihalari va mehnatlarini e'tirof etdi.

— Biz, namanganlik tadbirkorlar doim davlatimiz rahbarining qo'llab-quvvatlovini his qilib turamiz, — deydi "Toshbuloq invest group" hamda "Orzu city" kompaniyalari rahbari Qobil Tursunov. — Bugun yurtimizdagi eng chekka hududlarida ham qurilishlar ko'lami, shiddati avjida. Bular o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Imkoniyat, sharoit, muhit bo'lmasa, bunday katta bunyodkorliklar bo'lishi qiyin. Yig'ilishda davlatimiz rahbari soha vakillariga berilayotgan yangilliklar haqida gapirganida yanada quvondim. Masalan, auktsion orqali olinadigan yer uchastkalarini boshlang'ich 15 foiz to'lovni amalga oshirgan holda, qolgan 85 foizini foizsiz bo'lib to'lash imkoniyati yaratildi. Avvallari boshlanishiga 35 foiz to'lab, qolganiga 14 foiz ustama to'lanar edi. Foizsiz

bo'lib to'lash mahalliy tadbirkorlar uchun ham, investorlar uchun ham katta imkoniyat. Bu ishbilarnonlarning moliyaviy yuklamasini yengillashtirib, tejab qolingan mablag'ni qurilish ishlari va o'z faoliyatini yanada kengaytirishga sarflashiga xizmat qiladi.

Tadbirkorlardan, ayniqsa, qurilishga ruxsat olish tizimining nihoyatda murakkabligi va jarayondagi sansolarliklar bilan bog'liq savollar ko'p tushgani kuzatildi. Afsuski, keyingi yillarda bu masala quruvchilar, arxitektor va loyihachilarning asosiy muammosiga aylangan topshirildi. Tadbirkorlarning aytishicha, qurilishni boshlash bo'yicha kiritilgan arizalar qonunchilikda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilmaydi, arzimagan sabablar bilan rad etiladi. Joylarda shaharsozlik kengashiga a'zo idoralar o'rtasida o'zaro muloqot va hamkorlik yo'qligi ham sansolarlikni keltirib chiqarayotgan asosiy muammolardan biri.

Shu bois, yig'ilishda mutasaddilarga qurilishga ruxsat olishdan tortib, obyektini foydalanishga topshirishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni chuqur tahlil qilib, talablar, muddatlar va to'lovlarini kamida ikki barobar qisqartirish bo'yicha qaror loyihasi kiritish topshirildi. Shaharsozlik kengashiga esa Toshkent shahri va viloyat hokimlarining o'zi boshchilik qilishi, tadbirkorning masalasiga yakuniy yechim beriladigan tizim joriy etilishi belgilandi.

"Taklif va savollarimiz davlatimiz rahbariga yetib borganidan quvondik"

Ochiq muloqotni internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ham ko'plab tadbirkorlar qizg'in kuzatib bordi. Nafaqat quruvchilar, balki loyihachi, arxitektor va sohaning boshqa vakillari yig'ilish bo'yicha faol munosabatini bildirdi. Hatto ba'zilar ijtimoiy tarmoqlar orqali videomurojaat qilib, ayni yig'ilishda tadbirkorlarni anchadan beri qiynab kelayotgan muammolar o'rtaga tashlangani, ular bildirgan takliflarga davlatimiz rahbari tomonidan yechimlar berilganini xursandchilik bilan gapirdi. 20 yillik tajribaga ega arxitektor Mirodil Jamolov bilan suhbatlashganimizda, hayajon va taassurotlari hali ketmagan sezildi.

Mirodil JAMOLOV, Toshkent shahridagi "Memorial Architectural Project" (MAP) kompaniyasi rahbari:



— Davlatimiz rahbarining qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini internet tarmoqlari orqali kuzatdim va juda xursand bo'ldim. Chunki yig'ilishda ko'tarilgan aksariyat masalalar o'zimiz — biznes egalari tomonidan o'rtaga tashlangani, bevosita davlatimiz rahbariga taqdim etilgani ikki karra quvonarli. Chunki sohaning ichida yurgan odamlar bu muammolarga ko'proq duch keladi. Shu yilning 10-aprel kuni Savdo-sanoat palatasi Hamda Urbanizatsiya va uy-joy bozori barqaror rivojlantirish Milliy qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan muloqotda ana shunday qizg'inlik masalalarni o'rtaga tashlagandik. Savollarimiz Prezidentimizga yetkazilib, yig'ilishda bevosita tadbirkorlar bilan tahlil asnosida muammolar yechimi berilganidan xursand bo'ldik.

To'g'risi, qurilish sohasida qiyinchiliklar, kamchiliklar yetarlicha. Ayniqsa, qurilishga ruxsat olish jarayonlari juda ko'p vaqt oladi. Arizani 12 tadan 20 tagacha tashkilot ko'rib chiqib, ijobiy xulosa berganidan keyingina ruxsatnoma beriladi. Bizniki kabi kompaniyalar arxitektura loyihalarini ishlab chiqqanidan keyin uni shaharsozlik kengashi tasdiqlashi uchun ham 20 ga yaqin tashkilot ko'rib chiqishi kerak. Natijada shu jarayonning o'ziga 2-3 oy vaqt ketib qoladi. Vaholanki, qonunchilikda har bir jarayonni ko'rib chiqish muddatlari belgilangan. Biroq mutasaddi tashkilotlar tomonidan bu muddat talablari buzilib, loyihalar oylab osilib yotadi. Bu tadbirkorning katta vaqt va mablag' yo'qotilishiga olib keladi, ish cho'zilib ketadi.

Yana bir og'riqli muammo murojaatlarning ko'pincha ochiq qoldirilishi bilan bog'liq. To'g'risi, shu paytgacha juda ko'p masalalarda mutasaddi tashkilotlarga chiqqanimizda, hech qanday yechim berilmagan. Davlatimiz rahbari tizimdagi ko'plab murojaatlar salbiy javob bilan yopilganini ta'kidlagani bejiz emas. Vaholanki, hamma qatori biz ham xalq uchun ishlaymiz va murojaatlarimiz shular bilan bog'liq. Muammolar e'tiborsiz qoldirilishi esa nafaqat sohadagi, balki mamlakatdagi rivojlanishlarni orqaga tortishi mumkin. Chunki qurilish sohasi yurtimiz iqtisodiyotining drayveriga aylangan. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlik va ish o'rni yaratish imkoniyatlari, balki mamlakatning shaharsozlik qiyofasi, arxitekturasi bilan bog'liq.

Bugun arxitektor va tadbirkor sifatida ana shu jarayonlarda bevosita ishtirok etayotganimdan quvonaman. Korxonamiz arxitektura yo'nalishida loyihalash, binolarni texnik ko'rikdan o'tkazish xizmatlarini ko'rsatadi. Yillik savdo aylanmasi 1 milliard so'mdan yuqori. Bizning asosiy tamoyilimiz madaniy an'analarni innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Har bir me'moriy yechim mahalliy qadriyatlarini chuqur anglashdan boshlanadi va bu odamlarni ilhomlantiradigan noyob me'moriy obidalarini yaratish imkonini beradi.

Bugunga qadar yurtimiz va xorij davlatlarida mingdan ortiq loyiha, jumladan, tijorat va turar joy obyektlari qurilishini amalga oshirdik. Yurtimiz qurilish sohasi rivoji ortidan faoliyatimiz ham kengayib boryapti. Zamonaviy standartlar esa bizdan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Masalan, keyingi yillarda qurilishni loyihalashtirishda nafaqat estetika va tejamlorlik uyg'unligi, balki atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, ekologik jihatlar ham muhim talabga aylangan. Shaharsozlik me'yorlarida "yashil" hududlar yaratishga katta e'tibor qaratilmog'chi.

Ya'ni bugun qurilish loyihalarini shunchaki yaratib bo'lmaydi, har bir jihat aniq ko'rsatilishi kerak. Bu esa arxitekturani nafaqat san'at, balki qurilishlarning asosiy qismiga aylantiradi. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ko'plab loyihachilar ishtirok etgani boisi shunda.

Yig'ilishni kuzata turib, yurtimizda ko'plab soha vakillarining kasb bayrami borligi, ammo arxitektorlar nishonlaydigan alohida sana mavjud emasligi xayolimdan o'tdi. Ochiq muloqotda ishtirok etganimda, davlatimiz rahbariga ana shu taklifni bildirgan bo'lardim. Bu shaharlar qiyofasini yaratishga hissa qo'shayotgan arxitektorlar uchun katta sharaf va rag'bat bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Shunday qilib, yurtimiz qurilish sohasidagi to'planib qolgan ko'plab muammolar o'rtaga tashlanib, yechimlari berildi. Ana endi soha rivojini yangi bosqichga olib chiqish kerak. Har holda tadbirkorlar o'riqli masalalardan qutulib, yanada shiddat bilan ishlashga shaylangan. Ish jarayonida kuzatiladigan turli masalalar bo'yicha mutasaddilarga murojaatlar esa doimiy davom etadi. Chunki sohadagi barcha muammoni bir vaqtda uzil-kesil hal etishning imkoni yo'q, yangi vazifalar bilan birga yangi masalalar ham o'rtaga chiqaveradi. Shunchaki ularni hal etishning tizimli mexanizmi yo'lga qo'yilishi kerak.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

SPORT — ZARARLI ODATLARDAN ASROVCHI TABIIY VA ENG TA'SIRCHAN VOSITA

Zamonaviy hayot tarzi, axborot oqimining keskin ortishi va boshqa omillar yoshlar hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ijtimoiy faolligini oshirishni taqozo etadi. Aynan shu jarayonda sport alohida o'rin tutadi.



Erkin QODIROV,
O'zbekiston talabalar sporti
assotsiatsiyasi raisi
o'rinbosari

Binobarin, sport zararli odatlardan asraydigan samarali, tabiiy va eng ta'sirchan vosita, mustahkam qalqondir. Yaqinda Prezidentimiz raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sportni rivojlantirish masalasi aynan yoshlarni salbiy illatlardan himoya qilish, sog'lom turmush tarzini qaratib berish va jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omili ekanini qayd etildi. Ushbu yig'ilishda faqat musobaqalar va natijalar bilan cheklab qo'yilmasdan, sportni keng ma'noda ijtimoiy profilaktika vositasi sifatida rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlandi. Chunki sport bilan muntazam shug'ullangan yosh hech qachon gijovandlik, jinoyatchilik yoki boshqa zararli yo'nalishlarga berilmaydi, aksincha, o'z oldiga maqsad qo'yib, unga erishishga intiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olimpiya sport turlari bo'yicha 26 ta federatsiya faoliyat yuritayotgani va ularning har biriga vazirlar hamda yirik tashkilotlar rahbarlari birlashtirilgan sport tizimini boshqarishda mas'uliyatni kuchaytiradi. Viloyat hokimlarining hududlarda Prezidentimiz olimpiya harakatini rivojlantirish bo'yicha vakili etib belgilangani esa

samaradorlikni oshirishga qaratilgan muhim va katta qadam bo'ldi. Shu bilan birga, yig'ilishda qayd etilganidek, mavjud infratuzilma va imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotgani, ayrim mutasaddilar tomonidan sport tizimidagi muassasalar bilan yetarli darajada ishlamayotgani natijasida erishilishi mumkin bo'lgan yuqori ko'rsatkichlar boy berilayotgani tanqid qilindi, bu esa sportni rivojlantirish jarayonida mas'uliyatni yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Tajriba sportning gijovandlikka qarshi kuchli qalqon ekanini amaliy jihatdan yaqqol isbotlamoqda. Chunki sport rivojlangan joyda yoshlar band bo'ladi, o'z ustida ishlaydi va zararli odatlarga ehtiyoj sezmaydi. Jumladan, Zarbdor tumanida qisqa vaqt ichida o'n minglab yoshlarning ommaviy sportga jalb qilingani, yangi sport inshootlari barpo etilgani va buning natijasida hududning respublika miqyosidagi musobaqalarga mezbonlik darajasiga yetgani sportning ijtimoiy muammolari hal etishdagi kuchini ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlar tomonidan katta mablag' evaziga sport inshootlari qurilgani esa davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali yoshlarni sog'lom muhitga jalb etish imkonligini tasdiqlaydi.

Ayniqsa, talabalik yoshlarning hayotiy qarorlar qabul qiladigan eng muhim bosqichi bo'lib, bu davrda ularni sportga jalb etish gijovandlikka qarshi eng samarali profilaktika hisoblanadi. Termez davlat universiteti misolida minglab talabalarni sportga jalb qilish orqali xalqaro darajada natijalarga erishish imkonligi isbotlangan bo'lsa-da, ayrim oliy ta'lim muassasalarida talabalar jismoniy normativlarni bajara olmayotgani, sport klublari faqat rasmiyatchilik uchun faoliyat yuritayotgani jiddiy muammo. Shu sababli barcha oliy ta'lim muassasalarida sportni rivojlantirish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqish, ilg'or tajribalarni joriy etish va federatsiyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Yoshlarni sportga jalb qilishda an'anaviy musobaqalarning alohida o'rni bor. Xususan,



Nuqtayi nazar



"Barkamol avlod" sport musobaqalari orqali minglab yoshlar sportga oshmo bo'lmoqda.

"Talabalar ligasi" doirasida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida turli sport musobaqalari o'tkazilayotgani samarasida sog'lom raqobat muhiti shakllanib, iqtidorli sportchilar aniqlanmoqda. Yangi bosqich sifatida yo'lga qo'yilgan "Yangi O'zbekiston talabalar olimpiadasi" esa nafaqat sport natijalarini oshirish, balki yoshlarni sport orqali birlashtirish, jismoniy va ma'naviy barkamollikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu tizimli yondashuv natijasida sport talaba yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanyapti.

Sportni rivojlantirish orqali gijovandlikka qarshi kurashishda yana bir muhim yo'nalish sport tibbiyoti va ilmiy yondashuvni kuchaytirishdir. Chunki zamonaviy sport yuqori natijalar bilan birga sportchilar salomatligini saqlash, jarohatlangan oldini olish va tiklanish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishni talab qiladi. Hozirgi kunda sportchilarning bu boradagi ko'plab muammolari xorijda hal etilayotgani mahalliy tizimda yetarli imkoniyatlar yaratilmaganini ko'rsatadi. Shu bois, endilikda tibbiyot markazlari va sport federatsiyalari o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yilib, sportchilar salomatligi muntazam nazorat qilinadi. Bundan tashqari, sport diyetologiyasi, fiziologiya va psixologiya kabi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlash orqali sportni ilmiy asosda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Joriy etilayotgan "mahalla — maktab — sport muassasasi — oliyog'oh" zanjiri esa



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

sportni ommalashtirish va yoshlarni keng qamrab olishda mutlaqo yangi bosqichni boshlab beradi. Bu tizim bolalikdan sportga qiziqish uyg'otib, uzluksizlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, oliyog'oh talabalarining murabbiylikka jalb etilishi amaliy tajribani shakllantirish barobarida sportning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekting sohaga joriy etilishi sportchilar faoliyatini chuqur tahlil qilish, mashg'ulot jarayonlarini individuallashtirish va natijadorlikni oshirish imkonini beradi. Sohaga ilmiy yondashuv esa tizimni mukammallashtiradi.

Umuman olganda, bugungi kunda sportga nafaqat jismoniy tarbiya yoki sport natijalari bilan bog'liq yo'nalish, balki jamiyatni salbiy illatlardan himoya qilish, yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayotda o'z o'rni topishiga yordam berish kabi keng qamrovli strategik vazifa sifatida qaralayotgani ana shunday ezuq maqsadlar ro'yobiga xizmat qiladi.



Yigirma birinchi asrda u bir vaqtning o'zida bir necha strategik funksiyani bajarmoqda. Xususan, millat salomatligini mustahkamlab, inson kapitalini shakllantirmoqda. Sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan yuklamani kamaytirmoqda. Mamlakatning xalqaro imijini yuksaltirib, infratuzilmadan tortib, sport tibbiyoti hamda xizmatlar industriyasiga bo'lgan yondosh tarmoqlarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish drayveriga aylandi.

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, sport jadal rivojlangan davlatlarda, avvalo, xalqaro nufuz oshadi, qolaversa, bir emas, bir nechta sohalarda taraqqiy etadi. Bunda gap faqat medallarda emas, balki jamiyatning tizimli transformatsiyasi, hayot sifati oshishi va mehnat unumdorligi o'sishi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanishida. Aynan shunday yondashuv bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlari sport siyosatining asosini tashkil etadi.

O'zbekiston uchun ushbu yo'nalish so'nggi yillardagi keng qamrovli islohotlar jarayonida, ayniqsa, muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Burilish nuqtasi sifatida 2017-yilni yodga olish o'rinni. Ayni shu yili butun sohani qamrab olgan chuqur institutsional transformatsiya jarayoni boshlab yuborildi.

Ushbu davrgacha mamlakat sport tizimi uzoq vaqt davom etgan turg'unlik holatida edi. Eskirgan infratuzilma, aholini jismoniy faollikka jalb etish darajasini pastligi, malakali murabbiylar yetishmasligi, ilm-fanning mashg'ulot jarayoniga sust integratsiyasi hamda zamonaviy boshqaruv tizimi yo'qligi kuzatilgan.

Amalda bu omillar tizimning parokanda bo'lishiga olib keldi, u na ommaviylikni, na yuqori natijalarni ta'minlay olardi. Bolalar va o'smirlar sportni tarqoq holda faoliyat yuritgan. Yuqori darajadagi sportchilarni tayyorlash esa xalqaro raqobat talablariga javob bermaydi.

Bundan to'qqiz-o'n yil avval sportda boshlangan islohotlarga bir nazar tashlaylik. Davlat institutlari, federatsiyalar va ta'lim tuzilmalari



Vahob RO'ZIYEV,
Qashqadaryo viloyati sport
boshqarmasi boshlig'i

jismoniy tarbiya va sport davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mustahkamlab qo'yildi.

Yangi qonun amaldagisidan keskin farq qiladi. Xususan, unda aholini ommaviy sportga jalb qilish va ommaviy sport tadbirlarini tizimli o'tkazib borish, sport turlarini e'tirof etish va ularning reyestrini yuritish tartibi takomillashtirilmoqda.

Milliy olimpiya va paralimpiya qo'mitasining huquqiy maqomi va vakolatlari, paralimpiya, surdlimpiya, maxsus olimpiya va ko'zi ojizlar sporti harakatlariga doir masalalar qonun darajasida belgilab qo'yildi.

Sport federatsiyalarining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, ularni reyestriga kiritish va chiqarish mezonlari, sport klublari va sport ligalarining faoliyat yuritish tartibi, murabbiy, sport hakami va sport agentining huquq va majburiyatlari ham o'z ifodasini topdi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 7-aprel kuni jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik



o'rtasida muvofiqlashtirishni ta'minlaydigan yangi vertikal boshqaruv tizimi shakllantirildi. Qisqa muddatda keng ko'lami investitsiya dasturlari amalga oshirildi.

Mamlakat bo'ylab minglab sport inshootlari — zamonaviy, ko'p funksiyali komplekslar, suzish havzalari, stadionlar, yakkakurash va jamoaviy o'yin turlariga ixtisoslashtirilgan zallar barpo etildi va rekonstruksiya qilindi.

Asosiy yangilanishlar infratuzilmaning soni va salmog'i ortishi bilan bog'liq bo'ldi. Sport tur doirasidagi professional mashg'ulotlar doirasidan chiqib, ommaviy, ijtimoiy jarayonga aylandi. Maktab o'quvchilaridan tortib, kattalargacha bo'lgan barcha yosh toifalarini qamrab olishga qaratilgan dasturlar ishga tushirildi. Muntazam jismoniy faollik kundalik hayotning ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda.

Eng muhimi, bu jarayon mahallalar darajasida yo'lga qo'yildi. Butun tizimning poydevori sifatida bolalar va o'smirlar sportini isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, sport maktablari va tarmoqlar kengaytirildi, zamonaviy tayyorgarlik standartlari joriy etildi. Iqtidorlarni erta bosqichda aniqlash bo'yicha seleksiya ishlari kuchaytirildi.

Bu esa milliy terma jamoalarga istiqbolli sportchilarni tayyorlash imkonini berdi. Tamomila yangi element sifatida sport ilm-fanning sohaga integratsiyasi yo'lga qo'yildi. Mazkur transformatsiyaning samarasi allaqachon yaqqol ko'rinmoqda. O'zbekiston jahon arenalarida yorqin g'alabalarni qo'lga kiritayapti.

Endilikda mamlakatimizda sportni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ko'lami yanada kengayadi. Prezidentimiz tomonidan imzolangan yangi tahrirdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining huquqiy asoslari,

tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu borada yangi vazifalar belgilandi.

Xususan, davlatimiz rahbari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Endilikda mahallada ommaviy sport natijadorligi nafaqat qamrov, balki aholining salomatlik ko'rsatkichlari bo'yicha ham baholalanadi.

Shuningdek, har bir viloyatda bittadan tumanida "salomatlik balansi" shakllantirildi. Sport bilan faloq shug'ullanuvchi aholi orasidan "sog'lom hayot volontyorlari" korpusi tashkil etildi. Ular mahallalarda sport va sog'lom turmush tamoyillarini targ'ib qiladi. Biz endilikda nafaqat mahallaga, balki har bir oilaga tushishimiz kerakligi qayd etildi.

Yana bir muhim jihat. Yig'ilishda biz, mutasaddilarga Zarbdor tajribasini o'rganib, uni barcha hududlarda joriy qilish vazifasi topshirildi. Bunda asosiy e'tibor mahalladagi yoshlarni ommaviy sportga jalb etish, tadbirkorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratish muhimligi ta'kidlandi. Muhokama qilingan sport tizimining tahlili va qamrovi keng bo'ldi. Prezidentimiz sohaning barcha yo'nalishlari bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Albatta, bu orqali sportchilarni tayyorgarligini yaxshilash, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va natijadorlikni oshirish imkoni paydo bo'ladi. Shuningdek, sohada intizom va mas'uliyatni kuchaytirish vazifasi biz, mutasaddilarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Ilgari surilgan tashabbuslar mavjud muammolarni bartaraf etish va tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Belgilab bergaydi. Prezidentimiz tomonidan imzolangan yangi tahrirdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining huquqiy asoslari,

E'tirof

Sivilizatsiyalar, yangi davr, taraqqiyot, eng avvalo, inson tafakkurida ro'y beradigan o'zgarishlardan boshlangan. Ana shunday ziyoli qatlam qadriyatlar qayta tartiblanadi. Kecha aqlga sig'magan ishlar bugun butun jamiyatning tayanchiga aylangan. Aynan shu ichki siljishlar keyinchalik katta islohotlar nomi bilan tarixga kiradi. Xuddi shunday: yangi O'zbekistonning bugungi manzarasiga sinchiklab nazar solinsa, uning markazida barkamol avlodni tarbiyalaydigan, shakllantiradigan, kelajakka tayyorlaydigan ma'naviy timsol — ustoz siymosi turganini anglash qiyin emas.



ZAMONAVIY PEDAGOG TIMSOLI

Xususan, davlat siyosati darajasida ta'limga berilayotgan e'tibor ayni jarayonning aniq ifodasidir. Davlatimiz rahbarining 2025-yili Bo'stonlik tumaniga tashrif chog'ida — o'qituvchi va murabbiylar bilan muloqoti asnosida "Yangi O'zbekistonda eng muhim soha — ta'lim, eng hurmatli insonlar — o'qituvchi va murabbiylardir!" degan so'zlarini butun bir yo'nalishning mohiyatini ochib beruvchi mezon, desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi sakkiz yilda ta'lim va ilm-fan sohasiga ajratilgan mablag'ning olti barobar oshib, 378 trillion so'mga yetgani ham shu yondashuvning raqamlardagi ifodasidir.

Zamonaviy o'qituvchi haqida gap ketganda, bugun tasavvurimizda o'zi o'rgatayotgan bilimni avval hayotda his qilgan, uni o'z tajribasidan o'tkazib, keyin boshqalarga uzatayotgan murakkab va serqirra shaxs gavdalanadi. Chunki bugungi davr bilimni yod olish bilan cheklanmaydi. U bilimni anglash, amalda qo'llay bilish, undan yangi yo'llar ochishni talab etadi. Ayni jarayonda o'qituvchining tayyorgarligi, dunyoqarashi, tajribasi hal qiluvchi omildir.



Shu sababli ham zamonaviy pedagog timsoli ikki yo'nalish kesishgan nuqtada shakllanadi: biri — ilm, ikkinchisi — hayotning o'zi. Bunday yondashuv esa ta'lim jarayonini biryozlama axborot uzatishdan chiqarib, jonli muloqot, fikrlar to'qnashuvi, izlanish va kashfiyotga aylantiradi. Natijada o'quvchi tayyor javoblarni emas, o'z savollarini topishni o'rganadi. Demak, zamon shiddat bilan o'zgarib ekan, bilim ham yangilanadi, yondashuvlar o'zgarib turadi. Ularga moslasha olgan ustozgina shogirdini ertangi kunga munosib tayyorlay oladi. Shu bois, bugungi pedagog siymosida bir vaqtning o'zida olim, amaliyotchi va tarbiyachi uyg'unlashishi lozim. Bunday yuqori saviyadagi pedagoglar esa dunyo darajasida qadrlanadi, e'tirof qozonadi.

So'zimizning yaqqol isboti Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tgan "MDHning eng yaxshi pedagogi" xalqaro tanlovidir. An'anaviy tarzda Qozog'iston Milliy innovatsion ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan o'tkazib kelinadigan ushbu nufuzli musobaqada joriy yilda O'zbekiston vakili, filologiya fanlari doktori Perxan Allamberganova g'olib deb topildi. Mazkur

muvaffaqiyat mamlakatimizdagi tizimli ta'lim islohotlarining xalqaro miqyosda tan olinishidir.

Prezidentimiz ta'lim tizimini yangilashda nazariya va amaliyotni birlashtirgan zamonaviy pedagog timsoli muhimligini ta'kidlab keladi. Aynan shu mezon o'qituvchining butun faoliyatida to'liq mujassam, desak yangilashmaymiz. Zero, u "Audiovizual jurnalistika", "Media monitoring" kabi qo'llanmalarini yozishdan avval "Yoshlar" teleradiokanalida muharrir sifatida ishlagan, Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasiga rahbarlik qilgan. Olima bugun talabalarga berayotgan nazariy bilimlarini amaliyotda sinovdan o'tkazgan. "Perxan Allamberganova faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolgan pedagog emas. U media sohasida shakllangan, amalda his qilgan va shu tajribani ta'lim jarayoniga olib kirgan mutaxassis", deydi pedagogning yaqin hamkasblari.

Shu o'rinda nozik jihatga e'tibor qaratish lozim. Ushbu yutuqni individual muvaffaqiyat sifatida baholasa, asl qamrovini to'la tushunib yetmagan bo'lamiz. Chunki bunday natijaga olib kelgan omillar bir insonning shaxsiy intilishlari bilan cheklanib qolmaydi, uning ortida shakllangan muhit, yaratilgan sharoit, ta'lim tizimidagi izchil o'zgarishlar uzluksiz tarzda bir nuqtaga yig'ilganini anglash muhim. Shu ma'noda, Ostona qo'lga kiritilgan natija aslida bugungi o'zbek o'qituvchisining yangi qiyofasi, imkoniyatlari va salohiyatini namoyon etadi.

"Ustoz uchun eng katta mukofot — shogirdlar yutug'i. Qolgan o'z-o'zidan keladi", deydi olim. Haqiqatan, har qanday ustozning asl o'lchovi u tarbiyalagan shogirdlardir. Bugun Perxan Allambergovaning yuzlab shogirdlari turli muassasalarda mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritmoqda. Ilmiy darajalarga erishib, ilm-fan taraqqiyoti yo'lida xizmat qilyapti. Shu ma'noda, pedagogning muvaffaqiyati bir insonning emas, yillar davomida tizimli barpo etilgan yo'lning e'tirof etilishidir. Radiodan boshlab, ilm va pedagogika bilan yuksalgan yo'l bo'ldi. Zero, ustozlar qadagan ma'rifat nihollari shogirdlar siymosida davom etadi, shogirdlar ekanlari esa yangi avlodlarda meva beradi. Oramizdagi shunday fidoyi bog'bonlarning borligi yangi O'zbekistonimizning kelajagi ishonchli qo'llarda ekanidan darak.

Barno BO'RONOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Adolat — shunchaki mahkama zalida o'qilgan hukm emas. U — ustozlarning xato qilgan shogirdi himoyasi yo'lida bitgan nomasi. U — olimning asl maslagi, ilm yo'lga qaytish ahdi. U — davlat rahbarining "Sening qadring har narsadan ulug'" deya o'z fuqarosini qanoti ostiga olishi. Ulug' Navoiy aytganidek, adolat ila obod olam faqat shu odamlar va shu tizim orqali barpo etiladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Inson qadri

ADL ILA OLAM YUZIN OBOD QIL

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning "Adl ila olam yuzin obod qil, Xulq ila olam elini shod qil" degan hikmati asrlar osha jaranglab kelmoqda. Adolat — farovon jamiyatning poydevori, inson qadr-qimmatini va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy sharti. Tarix guvohlik beradiki, adolat hukm surgan o'lkada xalq to'kis, farovon yashaydi, adolat poymol qilingan joyda esa ijtimoiy ziddiyatlar va inqirozlar yuz beradi.

asosida ko'plab beayb fuqarolar jazo muassasalariga jo'natilgan.

Sherzod Jo'rayev uch yarim yil umrini panjara ortida, simtikan devorlar o'rtasida o'tkazdi. Uch yarim yil — shunchaki raqam emas. Bu — yosh olim ilmiy karyerasining to'xtatilgan yillari, farzandlar yaqinlar sog'inchi, oila va do'stlar nazarida or-nomus deb atalgan javharning sinishi...

Ozodlikka chiqqan Sherzod Jo'rayev dunyodan butkul umidini uzgan edi. O'zi va farzandlari kelajagiga ishonchi so'ngan, tafakkuri pajmurda, qalbi yaralangan inson sifatida jamiyatga qaytdi u. Darvoqe, yosh olimning taqdiri "Birinci avgust" (senariy muallifi — kamina) badiiy filmida muayyan darajada ko'rsatilgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida bu hikoya boshqacha yakun topdi. Jadal sudlov islohotlari, o'tmishni xolislik asosida taftish etish siyosati va huquqiy adolatni tiklash mexanizmlari tufayli Sherzod Jo'rayev Oliy sudga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ish qayta ko'rildi va u to'liq oqlandi! Tergov-sud hujjatlarida unga nisbat berilgan barcha ayblovlar asossizligi tasdiqlandi.

Bugun u ilm-fan sohasida yana faol izlanishlar qilyotgan tadqiqotchi, XV asrning buyuk ma'rifatparvar hukmdori Husayn Boyqaro davrida kechgan siyosiy va madaniy jarayonlar bo'yicha dissertatsiya himoya qilish arafasida. Ayrimlar tuhmat toshi yosh olimni bosib-yanchib tashlaydi deb o'ylagan bo'lsa ajab emas. Ammo insofu adolat bo'hton toshini yakson etib, qaddi dol bo'lganlarni alifdek rost qilmoqqa qodir ekan!

Sherzod Jo'rayevning ishi yagona holat emas. Yangi O'zbekistonda Oliy sud nazorati tartibida minglab ishlar qayta ko'rildi. Sud islohotlari boshlanganidan buyon yuzlab kishi noqonuniy ayblov to'g'risidagi xulosa asosida oqlandi yoki jazosi kamaytirildi. Bu raqamlarning har biri ortida Sherzod Jo'rayevniki kabi bir oila, bir umr, bir umid yotadi.

Afvg vafo, ahdga sadoqat

Adolat faqat tuhmatni fosh etish, beaybni ozod qilishdan iborat emas. Adolatning yana bir yuksak namunasi yangilish yo'lga kirgan, bejo qadam qo'rgan insonni kechirish, unga ikkinchi imkon berish va jamiyatga qaytarishdir. Yaqin o'tmishda jinoyat sifatida baholangan xatolarining ayrimlari yosh va tajribasizlik, ba'zan tashqi ta'sirlar tufayli yuz bergan. Shunda ham mutanosib bo'lmagan og'ir jazolar qo'llangan, kechirimlilik esa ikkinchi darajali xislat hisoblangan.

2015-2016-yillarda internetda "Abdulloh Nusrat" taxallusi ostida konstitutsiyaviy tuzumga oid noqonuniy va nomaqbul bitiklar,



siyosiy-tanqidiy maqolalar tarqatilyotgani aniqlandi. Tergov jarayonida ma'lum bo'lishicha, bu ishning ortida yosh navoiyshunos olim Akrom Malik turgan. Iste'dodli, qobiliyatli, adabiyotshunoslik ilmining umidli vakili sifatida baholanayotgan, menga shogird maqomida bo'lgan bu yigit tashqi kuchlar ta'siriga tushib qolgan, o'zi tushunib-tushunmay noravo yo'lga kirib ketgan edi.

Akrom Malik sud hukmiga muvofiq, 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. O'sha davr mantig'iga ko'ra, bu jazo "ota yumshoq" deb hisoblanishi mumkin edi. Binobarin, siyosiy motivdagi jinoyatlarda ayblanganlarga ko'pincha ancha og'irroq jazo qo'llanilardi.

2017-yili Akrom Malik Prezidentimizga murojaatnoma yo'lladi.

"Ichkari" o'sha paytlar jahannami eslatar edi. Inson zotidan biror himoyachig bo'lishi mumkin emas edi bu makonlarda. Har qanday inson iztirob va ko'zyoshlar ila "Qamoqlar tiriklar qabristoni ekan!" deb yuborar edi. Tushkunlik to'la yuraklardan yorug' kunlar umidi sham kabi o'chardi. Menda ham shunday bo'ldi...

Oradan bir yil o'tdi. Tashqaridan ko'ngilarga taskin beruvchi mujdalar kela boshladi. Biz mahkumlarda ham tiriklikka, hayotga umid uyg'ona bordi. Chunki Siz boshlagan siyosatning epkinlari qamoqxonalarga ham kirib borgan edi. Jumladan, birdan qamoq xodimlarida muomala o'zgaradi, siyosiy-diniy mahkumlar guruh-guruh bo'lib ozodlikka chiqi boshladi... Men bu ishlarda adolatparvar insonning qat'iyatini ko'rdim. Qamoqlarda insoniy muhit paydo bo'lgani, mahkumlar haqlarining tiklangani Shavkat

Mirziyoyev siyosatining muhim g'alabasi, yuksak natijasidir!" deb yozgan edi Akrom Malik davlatimiz rahbariga yo'llagan murojaatnomalaridan birida.

Yosh olimning ichki dunyosi, ijodiy salohiyati hamda tarix, adabiyot sohasidagi tadqiqotlarga qo'shib kelayotgan hissasini yaxshi bilgan hamkasblar, ustozlar ham qo'l qovushirib turmadi. Bir guruh olim va ijodkorlar yosh tadqiqotchining xatosi va tajvasbini ko'rsatib, uning ilmiy salohiyatini ta'kidlab, afv etilishini so'rab Prezidentimizga



xat yo'lladik. Bu noma shu ma'noda diqqatga sazovor: O'zbekiston ziyolilari yosh avlod uchun javobgarlik tuyg'usini namoyon etdi, ustozlar shogirdlarini zabun ahvolda tashlab qo'ymadi, ilmiy jamoatchilik undan yuz o'g'irmadi.

Prezidentimiz so'rovlarni yerda qoldirmadi — Akrom Malik davlatimiz rahbari imzo chekkan afvnomaga ko'ra ozodlikka chiqdi. Bu yerda hikoyaning eng muhim qismi boshlanadi: insonning o'ziga tuhfa etilgan ikkinchi imkonni qanday qabul qilishi!

Akrom Malik ozodlikka chiqqach, afvga sadoqat ko'rsatdi, shogirdlik ahdiga vafo qildi. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoniga uch jildan iborat sharh bitdi. Har tomonlama puxta, pishiq va eng muhimi, yoshlarga tushunarli tilda yozilgan sharh muallifi "Ilhom" tanlovda g'olib topildi va "Spark" avtomobili bilan taqdirlandi.

Bundan tashqari, yosh adib "Halqa", "Sahro", "Jangchi" kabi romanu qissalar yozdi, turkum she'rilar yaratdi. Eng muhimi, u Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devoni matniy taqdiqi bo'yicha dissertatsiya himoya qilishga erishdi.

Akrom Malik qisqa muddatda qo'lga kiritgan yutuqlar nafaqat shaxsiy zafar, balki kechirimlilik tamoyilining jamiyatga bergan samarasidir. Avval xato qilgan, lekin ikkinchi imkon tuhfa etilgan inson ishonchini oqlab, sarmahsul, unumli ijod orqali jamiyatga, davlatga o'z minnatdorligini izhor etdi.

O'zgarayotgan paradigma

Sherzod Jo'rayev va Akrom Malikning kecmishi farqi, albatta: biri tuhmat, ikkinchisi haqiqiy xato sababli jabr ko'rdi. Ammo ularni bog'laydigan umumiy rishta shuki, yangi O'zbekistonning odil siyosati har ikkisi ham olimu ijodkor sifatida qayta hayot baxsh etdi va ikkovlon ham bu imkonni havoga sovurmadi.

Bunday misollar o'nlab, balki yuzlab topiladi. Kechagi kunga nazar tashlasak, turli sabab-omillarga ko'ra sitam chekkan, huquqlari poymol etilgan, imkoniyatlari tortib olingan vatandoshlarimiz taqdiri ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Ular ichida olimlar, yozuvchilar, jurnalistlar, oddiy mehnatkashlar, jamiyatimizning barcha qatlami vakillari bor. Yangi O'zbekiston rahbariyati ularning barchasiga yorug' va da berdi, oydin mujda yo'lladi: adolat tiklanadi, endi bari boshqacha bo'ladi!

Bu yo'lida tizimli chora-tadbirlar ko'rildi. Jinoyat-prosessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar, hibsga olish va qamoqda ushlab tartiblariga cheklovlar, majburiy ko'rsatma olishga nisbatan qat'iy taqidlal — bularning barchasi o'tmish xatolarining takrorlanmasligi uchun kafolat yaratdi. Sud mustaqilligini mustahkamlash, prokuratura vakolatlarini tartibga solish, qonun ustuvorligiga tayangan demokratik davlat qurishdek tamoyillar yangi O'zbekistonning huquqiy qadriyati, aqidasi aylandi.

Kechirimlilik adolatning dushmani emas. Aksincha, chinakam adolat kechirimlilikni taqozo etadi. Xom sut emgan bandai ojiz mutlaq ravishda adashuvdan xoli emas. Odil jamiyat esa yangilishganlarni tarbiyalash va rohi rostga qaytarish yo'lini tutadi. Afsuski, yaqin o'tmishda bu kuch-vakolat suiiste'mol qilindi, jazolash funksiyasi bot-bot istifoda etildi, isloha emas, sindirishga urg'u berildi. Yangi O'zbekiston bu paradigmani o'zgartirmoqda, "Adovat emas, adolat yengar" degan dono yondashuv hayotiy tutumga aylanmoqda.

Xo'sh, zulm, adolatsizlik jamiyatda qanday aks sado beradi? U, avvalo, raiyatning davlatga ishonchiga putur yetkazadi. Jamoaviy xotira zaharlanadi,

navqiron avlodga ko'zga ko'rinmas ijtimoiy jarohat meros bo'lib o'tadi. Odamlar o'zini himoyasiz, zaif his etadi. Bu esa millatning botiniy quvvati, vatansavarlik ruhiyatini so'ndiradi.

Adolatning tiklanishi hamisha jamiyati jipslashtirishga xizmat qiladi. Deylik, Sherzod Jo'rayevni oqlash faqat bir oila yoki bir olim hayotidagi o'zgarishgina emas. Bu barcha olimu fuzaloga qaratib xitobdir: "Tizim sizlarga adolatli munosabatda bo'lishga qobil, qodir!". Akrom Malikning afv etilishi esa yangilish odim otgan yosh avlodga yo'llangan mujda: "Xato qilsangiz, uni mardona tan oling, samimiy tavba qiling va vatan bag'riga qayting!".

Jamiyatning jipsligi, birdamligi, ruhiy salomatligi ko'p jihattan shu kabi signallarga bog'liq. Ishonch davlatning chinididan nozik, suv va havodek zarur sarmoyasidir. Uni pul, sarvat bilan sotib olib bo'lmaydi, u faqat adolatli amallar orqali shakllanadi. Ta'bir joiz bo'lsa, oqlangan har bir begunoh fuqaro, afv etilgan har bir tavbakor — ishonch poydevoriga qo'yilgan bir g'isht...

Davlatning tamali

Jahon faylasuflari "Birinci muallim" deb e'zozlagan Arastu adolatni boshqalarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish fazilati deb ta'riflagan. Hazrat Navoiy esa uni olam yuzini obod qiluvchi kuch deb ulug'lagan. Zamonaviy davlatshunoslik nuqtayi nazaridan baholaganda, adolat — ijtimoiy shartnoma poydevori, fuqarolik jamiyatining hayotiy asosi. Bu uch manba — antik falsafa, mumtoz she'riyat va zamonaviy davlat ilmi yakdil, musharak xulosa bermoqda: adolatsiz davlat uzoq umr ko'rmaydi, bunday jamiyatda inson hatto o'z vataniida o'gay bo'lib qoladi.

Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi orqali adolatni amaliy siyosatning o'zagi, davlatning tamaliga aylantirdi. Sudlov islohotlari, inson huquqlari institutlari, jamoatchilik nazorati mexanizmlari — barchasi inson manfaatlari, haq-huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan.

Biz qalamga olgan ikki inson taqdiri — yangi O'zbekistonda adolatli tizim ishlayotganining yorqin isbotidir. Ularning kecmishi yurimizda huquqiy va ma'naviy islohotlar naqdar real va hayotiy ekanini ko'rsatadi. Biz — olimlar, ziyolilar, jamoatchilik vakillari bu ezgu yo'lni qo'llab-quvvatlashimiz, natijalarni keng jamoatchilikka yetkazishimiz va islohotlarga imkon qadar hissa qo'shishimiz lozim, albatta.

Maqola debochasi Alisher Navoiyning adolat bobidagi hikmatini zikr qilgan edik. Aslida, adolat tamoyili hazrat ijodining o'qimorini tashkil etadi. Navoiyning adolat haqidagi baytu hikmatlari bugun ham o'z mazmunini yo'qotmagan, ehtimol, hech qachon bugunchalik dolzarb ahamiyat kasb etmagan. Chunki biz nafaqat so'zda, balki yuraklarda, hayotimizda adolat tantana qilyotgan bir davrda yashayotirmiz.

Sherzod Jo'rayev XV asrda Xuroson o'lkasini fozil odamlar makoniga aylantirgan Husayn Boyqaro davrini taqdiq etayotgani, Akrom Malik esa adolat va insonparvarlik g'oyalarni kuylovchi buyuk Navoiy merosini o'rganayotgani bejiz emas. Ikki yo'l ham bir fikrga yetaklaydi: yangi O'zbekiston o'zining buyuk gumanistik an'analarga qaytmog'qda!

Adolat — shunchaki mahkama zalida o'qilgan hukm emas. U — ustozlarning xato qilgan shogirdi himoyasi yo'lida bitgan nomasi. U — olimning asl maslagi, ilm yo'lga qaytish ahdi. U — davlat rahbarining "Sening qadring har narsadan ulug'" deya o'z fuqarosini qanoti ostiga olishi. Ulug' Navoiy aytganidek, adolat ila obod olam faqat shu odamlar va shu tizim orqali barpo etiladi. Ne baxtki, biz ana shu yo'l damiz. Bu yo'l dan qaytmasslikka umid va ishonchimiz hamisha poydor bo'lgay!

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasini

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-446.
30821 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchesi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzili:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 02:13